aniqlanishi, keyinchalik esa, Tarqoq disk va unda transneptun obyektlar ichiga hozircha aniqlanganlar orasida eng yirik osmon jismi – Erida karlik sayyorasining kashf etilishi, Quyosh tizimi chegarasi haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerakligini namoyon etdi. Bugungi kunda, Quyosh tizimining chegarasi qayerda ekanligi haqida aniq dalil va faktlar mavjud emas. Hozircha bildirilayotgan ilmiy farazlarga ko`ra, Quyosh tizimining chegarasini aniqlash ikkita faktorga -Quyosh shamolining uzil-kesil so`nishi va uning butunlay to`xtab, yulduzlararo modda bilan to`qnash kelishi joyi, hamda, Quyoshning tortish kuchining butunlay yo`qolish darajasiga tushishi sifatida qaraladi. Bunday faraziy fazoviy hudud, fanda geliopauza deb ataladi. Taxminlarga ko`ra, geliopauza Pluton orbitasidan to`rt barobar naridagi masofada joylashgan va u yulduzlararo fazoning boshlanish nuqtasi bo`lishi kerak. Quyoshning o`zidan boshlab, geliopauzagacha bo`lgan ulkan fazoviy hudud, ya`ni, Quyoshning tortish kuchi ta`sirga ega bo`lgan fazo -Geliosfera deb ataladi. Hozirda faqat «Voyager-1» kosmik apparatigina geliopauzani kesib o`tgan. Shuningdek 2027 yilda «Voyager-2» va keyinroq «Yangi gorizontlar» kosmik apparatlari, geliopauzani kesib o`tishi va yulduzlararo fazoga chiqishi kutilmoqda. Qurollanmagan ko`z bilan, tungi osmonda, Mars, Yupiter va Saturn sayyoralarini kuzatish mumkin. Merkuriy va Venera sayyoralarini ham qurollanmagan ko`z bilan kuzatish mumkin, faqat bu sayyoralarini ma`lum qisqa vaqt mobaynida -Quyoshning botishidan keyingi va chiqishidan biroz avvalgi soatlarda kuzatish imkonli bo`ladi xolos. Binokl yoki kichikroq teleskop yordamida, Yupiterning eng katta to`rt tabiiy yo`ldoshlarini (Galiley yo`ldoshlarini) va Saturnning Titan yo`ldoshini, shuningdek, Uran va Neptun sayyoralarini kuzatish mumkin. Shuningdek, kometalarning Quyoshga yaqinlashgan davrida ularni, qurollanmagan ko`z bilan kuzatish imkonini paydo bo`ladi.



5.1.Yer – sayyorasi.

Yer-Quyosh tizimidagi sayyoralar ichida, tartib bo`yicha uchinchi, o`lchamlariga ko`ra beshinchi o`rinda turuvchi sayyoradir. Shuningdek, ona sayyoramiz, insoniyatga ma`lum bo`lgan sayyoralar ichida, tiriklik mavjud bo`lgan yagona sayyora. Ilmiy farazlarga ko`ra, Yer, Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar singari, Quyosh gaz-chang tumanligidan, bundan taxminan 4.5 milliard yil avval paydo bo`lgan. Yer sayyorasi shakliga ko`ra, yassi ellipsoidga o`xshash bo`lib, «Geoid» deb ataladi. Geoid va unga o`xshash (approksimatsion) ellipsoid orasidagi farq 100 metr atrofida. Sayyoramizning o`rtacha diametri 12742 kilometr. Aylanasi esa \approx 40000 kilometr. Yerning ekvatori, o`ziga xos do`nglikni hosil qilgan. Uning ekvatorial diametri, qutblar orasidagi diametridan 42.6 kilometr uzunroq. Yer sirtidagi eng baland nuqta, Everest cho`qqisi (Jomolungma) bo`lib, u dengiz sathidan 8848 kilometr balandlikda joylashgan. Eng chuqur botiqligi esa, Marianna botig`i bo`lib, u dengiz sathidan 994 metr pastda joylashgan. Ekvator do`ngligi hisobiga, Yer markazidan eng uzoq joylashgan nuqta Everest cho`qqisi emas, balki, ekvatorga yaqinroq



joylashgan boshqa cho`qqilar-Ekvadordagi Chimboraso vulqoni cho`qqisi hamda Perudagi Uaskaran tog`i tepasi hisoblanadi. Yer sirtining 70.8% qismini dunyo okeani egallagan. Qolgan qismi esa, materiklar va orollardan iborat quruqliklar tashkil qiladi. Quruqliklarda joylashgan ko`llar, muzliklar, daryolar va yer osti suvlari, dunyo okeani bilan birgalikda gidrosferani tashkil qiladi. Yerdagi kabi tirik organizmlar uchun hayot sharoitiga muvofiq keluvchi suv, Yerdan boshqa sayyoralarda aniqlanmagan. Yerning qutblari qalin muz qatlamlari bilan qoplangan bo`lib, u Arktika va Antarktika muz qalqonlarini, hamda, dengiz muzliklarini tashkil qiladi. Yerning ichki qatlamlari ancha faol bo`lib, u kimyoviy va fizik xossalariغا ko`ra, bir necha qatlamlarga bo`linadi. Yer markazida ichki yadro va uni o`rab turgan tashqi yadro mavjud. Yadroni o`rab turgan qattiq qatlam Litosfera deb ataladi. Shuningdek, litosfera ostida Atenosfera qatlami mavjud bo`lib, u, litosferaning o`zidan yuqoridagi qatlamlarining harakatlanishi uchun omil bo`ladi. Yer sayyorasi, atrofini o`rab turuvchi qalin gaz qobig`i -atmosferaga ega. Yer atmosferasi bir necha qatlamlardan iborat. Atmosferaning yerdagi hayot va iqlimning barqarorligidagi o`rni g`oyat kattadir. Shuningdek, Yer sayyorasining gidrosfera, atmosfera, litosferasining tirik organizmlar yashaydigan barcha qismlari birgalikda-biosferani tashkil qiladi. Yer yagona tabiiy yo`ldosh -Oyga ega. Qadim zamonlarda, ko`plab tamaddunlarda Yer sayyorasi yassi shaklda tasavvur qilingan. Qadimgi Mesopotamiyaliklar, Yerni, okean sirtida suzib yuruvchi disk shaklida deb o`ylashgan. Qadimgi xalqlarning aksariyatida Yerni xo`kiz shohida tutib turishi, xo`kizni esa uchta fil, fillarni esa ulkan kit ko`tarib turishi haqida sodda tushunchalar hukm surgan. Yerning shar shaklida ekanligini ilk bor qadimgi yunon olimlari, xususan Pifagor ta`kidlagan edi. O`rta asrlarga kelib, olimlar ikkilamchi belgilarga ko`ra, xususan boshqa sayyoralarning ko`rinayotgan shaklidan kelib chiqib, Yer ham aynan shar shaklida ekanligini nazariy isbot qilishgan. Yer ilk marta 1959 yilda, Eksplorer-6 kosmik apparati orqali fotosuratga tushirilgan edi, biroq tasvir juda sifatsiz chiqqan. Ilk sifatli va yaxlit Yer fotosuratini, 1967 yilda «Lunar Orbiter-V» apparati olishga muvaffaq bo`lgan.

Yerni koinotdan turib ko`rgan eng birinchi inson esa, rus fazogiri Yuri Alekseevich Gagarin bo`lgan. 1968 yilda «Apollon-11» ekipaji, Oy orbitasidan turib yerni kuzatishga muvaffaq bo`lgan edi. «Apollon-17» ekipaji esa, 1972 yilda mashhur «The Blue Marble» (Moviy Marmar) fotosuratini olgan.

5.2.Sayyoralarning 2017 yildagi ko`rinishi

Sayyoralarning 2017 yildagi ko`rinishi yetarlicha qulaylikka ega. Merkuriy yil davomida Quyoshdan 27 gradusdan uzoqlashmagan holda 3 ta tonggi(yanvar, may, sentyabr) va 3 ta kechki(aprel, iyul, noyabr) elongatsiyaga erishadi.



Merkuriyni 2017 yildagi tonggi elongatsiyasi



Venera sayyorasini kuzatish 2017 yil butun yil davomida qulaylik yaratad (12 yanvar-kechki elongatsiya 47 gradus, 25 martda—Quyosh bilan quyi birlashish). Mars sayyorasini kuzatish 2017 yil noqulay, chunki sayyoraning ko`rinish diametri



6 burchak sekunddan iborat(birlashish 27 iyul). Yupiterning (Parizod yulduz turkumida) eng yaxshi ko`rinishi yilning birinchi yarmida kuzatiladi (7 aprelda ro`baro` turish). Saturn sayyorasini kuzatish uchun ham yilning birinchi yarmi qulaylik yaratadi(15 iyunda qarama-qarshi turish). Uran ([Baliq yulduz turkumida](#)) va neptun ([Qovg`a \(Dalv\) yulduz turkumida](#)) kuzgi sayyoralar sanaladi, chunki mos ravishda 19 oktyabrva 5 sentyabrdan Quyosh bilan ro`baro` turishga erishadi.

5.3.2017 SAYYORALARING KO`RIN ISHI BUXORO O`ZBEKISTON

Sana	Merkuriy	Venera	Mars	Yupiter	Saturn	Uran	Neptun
1 Yan	00:06 t	03:12 k	04:13 k	05:47 tt	00:51 t	07:39 kt	04:12 k
8 Yan	00:52 t	03:17 k	04:06 k	06:11 tt	01:15 t	07:06 kt	03:39 k
15 Yan	01:03t	03:20 k	03:58 k	06:35 tt	01:38 t	06:32 kt	03:06 k
22 Yan	00:55t	03:20 k	03:50 k	06:57 tt	01:59 t	05:58 k	02:32 k
29 Yan	00:40t	03:17 k	03:41 k	07:23 tt	02:19 t	05:19 k	01:58 k
5 Fev	00:22 t	03:12 k	03:31 k	07:44 tt	02:38 t	04:45 k	01:23 k
12 Fev	00:05t	03:02 k	03:22 k	08:04 tt	02:55 t	04:11 k	00:49 k
19 Fev	-	02:48 k	03:13 k	08:24 tt	03:12 t	03:37 k	00:15 k
26 Fev	-	02:27 k	03:04 k	08:44 tt	03:28 t	03:03 k	-
5 Mart	-	01:57 k	02:54 k	09:04 tt	03:44 t	02:30 k	-
12 Mart	-	01:16 k	02:45 k	09:24 tt	03:59 t	01:57 k	-
19 Mart	00:26 k	00:26 k	02:36 k	09:44 tt	04:15 t	01:24 k	-
26 Mart	00:55 k	00:07t	02:27 k	10:05 tt	04:30 t	00:51 k	00:16 t
2 Apr	01:05 k	00:28 t	02:17 k	10:12*t*	04:46 tt	00:18 k	00:32 t
9 Apr	00:46 k	00:44 t	02:08 k	09:53*t*	05:02 tt	-	00:47 t
16 Apr	-	00:55 t	01:58 k	09:35*t*	05:18 tt	-	01:03 t



23 Apr	-	01:02 t	01:47 k	09:16*t*	05:40 tt	-	01:19 t
30 Apr	-	01:08 t	01:36 k	08:46 kt	05:59 tt	-	01:37 t
7 May	00:10 t	01:11 t	01:24 k	08:09 kt	06:18 tt	00:16 t	01:55 t
14 May	00:17t	01:15 t	01:12 k	07:33 kt	06:39 tt	00:35 t	02:14 t
21 May	00:20t	01:19 t	01:00 k	06:57 kt	07:02 tt	00:55 t	02:34 t
28 May	00:20t	01:24 t	00:48 k	06:22 kt	07:26 tt	01:16 t	02:56 t
4 Iyun	00:15t	01:30 t	00:36 k	05:48 k	07:51*t*	01:39 t	03:20 t
11 Iyun	00:03 t	01:36 t	00:24 k	05:16 k	07:45*t*	02:04 t	03:45 t
18 Iyun	-	01:43 t	00:13 k	04:45 k	07:42*t*	02:31 t	04:13 t
25 Iyun	-	01:51 t	00:02 k	04:17 k	07:42*t*	02:59 t	04:46 t
2 Iyul	00:16 k	01:59 t	-	03:51 k	07:24 kt	03:29 t	05:17 t
9 Iyul	00:32 k	02:06 t	-	03:27 k	06:57 kt	04:01 t	05:49 tt
16 Iyul	00:38 k	02:12 t	-	03:01 k	06:32 kt	04:34 t	06:22 tt
23 Iyul	00:37 k	02:17 t	-	02:41 k	06:09 kt	05:11 t	06:56 tt
30 Iyul	00:30 k	02:20 t	-	02:22 k	05:47 kt	05:46 t	07:31 tt
6 Avg	00:17 k	02:21 t	-	02:05 k	05:27 kt	06:21 t	08:06 tt
13 Avg	-	02:20 t	-	01:50 k	05:08 kt	06:55 tt	08:42 tt
20 Avg	-	02:17 t	00:05 t	01:35 k	04:50 kt	07:30 tt	09:17 tt
27 Avg	-	02:11 t	00:17 t	01:22 k	04:33 k	08:05 tt	09:37*t*
3 Sent	00:20t	02:05 t	00:29 t	01:08 k	04:17 k	08:40 tt	09:55*t*
10 Sent	00:54 t	01:57 t	00:41 t	00:56 k	03:58 k	09:15 tt	10:14*t*
17 Sent	00:52 t	01:49 t	00:53 t	00:43 k	03:43 k	09:50 tt	10:12 kt
24 Sent	00:29 t	01:40 t	01:05 t	00:31 k	03:28 k	10:25 tt	09:55 kt



1 Okt	00:00 t	01:31 t	01:17 t	00:19 k	03:13 k	11:00 tt	09:38 kt
8 Okt	-	01:22 t	01:29 t	00:06 k	02:58 k	11:27*t*	09:21 kt
15 Okt	-	01:14 t	01:41 t	-	02:43 k	11:44*t*	09:03 kt
22 Okt	-	01:05 t	01:54 t	-	02:27 k	12:01*t*	08:44 kt
29 Okt	-	00:56 t	02:07 t	-	02:11 k	12:07 kt	08:25 kt
5 Noz	00:06 k	00:47 t	02:19t	00:04 t	01:54 k	11:46 kt	08:05 kt
12 Noz	00:17 k	00:38 t	02:32 t	00:31 t	01:35 k	11:23 kt	07:43 kt
19 Noz	00:28 k	00:29 t	02:45 t	00:58 t	01:16 k	11:00 kt	07:20 kt
26 Noz	00:36 k	00:19 t	02:58 t	01:26 t	00:55 k	10:34 kt	06:56 kt
3 Dek	00:29 k	00:08 t	03:10 t	01:53 t	00:32 k	10:07 kt	06:30 kt
10 Dek k	-	-	03:22 t	02:19 t	00:08 k	09:39 kt	05:59 kt
17 Dek	00:14 t	-	03:32 t	02:45 t	-	09:09 kt	05:30 k
24 Dek	01:00 t	-	03:42 t	03:09 t	-	08:38 kt	05:00 k
31 Dek	01:08 t	-	03:49 t	03:33 t	00:00 t	08:05 kt	04:28 k

k – kechki ko`rinish

kt – kechki va tungi

h – tungi chiqishdan botishgacha

t - butun tun, g`iras-hiralikda chiqib botadi

+t+ - butun tun, yoritgich botmaydi

tt – tun va tong

t – tonggi ko`rinish

tk, kt – tasodifiyqo`shaloqko`rinish. Yoritgich kech quyosh botgandan so`ng va tongda Quyosh chiqish oldidan ko`rinadi. Qaysi harf oldin turgan bo`lsa shunda ko`rinish davomiyroq bo`ladi: tk –tonggi ko`rinish nisbatan davomliroq. kt-kechki ko`rinish davomliroq.

5.4. Sayyoralar harakatida asosiy hodisalar.

MERKURIY:

2016	11 Dekabr	sharq. elongatsiya +20°46`
2016	19 Dekabr	Turish
2016	28 Dekabr	Quyi.birlashish
2017	8 Yanvar	Turish
2017	19 Yanvar	G`arb.elongatsiya +24°08`
2017	7 Mart	Birlashish
2017	1 Aprel	sharq. elongatsiya +19°00`
2017	9 Aprel	Turish
2017	20 Aprel	Quyi.birlashish
2017	3 May	Turish
2017	18 May	G`arb.elongatsiya +25°47`
2017	21 Iyun	Birlashish
2017	30 Iyul	sharq. elongatsiya +27°12`
2017	13 Avgust	Turish
2017	26 Avgust	Quyi.birlashish
2017	5 Sentyabr	Turish
2017	12 Sentyabr	G`arb.elongatsiya +17°56`
2017	8 Oktyabr	Birlashish
2017	23 Noyabr	sharq. elongatsiya +22°00`
2017	3 Dekabr	Turish
2017	13 Dekabr	Quyi.birlashish
2017	23 Dekabr	Turish
2018	1 Yanvar	G`arb.elongatsiya +22°40`

VENERA:

2017	12 Yanvar	sharq. elongatsiya +47°09`
2017	4 Mart	Turish
2017	25 Mart	Quyi.birlashish
2017	15 Aprel	Turish
2017	3 Iyun	G`arb.elongatsiya +45°52`
2018	9 Yanvar	Birlashish

MARS

2017	27 Iyul	Birlashish
2018	27 Iyun	Turish

YUPITER

2017	6 Февраля	Turish
2017	7 Aprel	ro`baro` turish (-2,5)
2017	9 Iyun	Turish
2017	26 Oktyabr	Birlashish

2018 9 Mart	Turish
SATURN	
2016 10 Dekabr	Birlashish
2017 6 Aprel	Turish
2017 15 Iyun	ro`baro` turish (0,2)
2017 25 Avgust	Turish
2017 21 Dekabr	Birlashish
2018 18 Aprel	Turish
URAN	
2016 29 Dekabr	Turish
2017 14 Aprel	Birlashish
2017 3 Avgust	Turish
2017 19 Oktyabr	ro`baro` turish (5,9)
2018 2 Yanvar	Turish
NEPTUN:	
2017 2 Mart	Birlashish
2017 16 Iyun	Turish
2017 5 Sentyabr	ro`baro` turish (7,8)
2017 22 Noyabr	Turish
2018 4 Mart	Birlashish



5.5.Merkuriy

Merkuriy-Quyoshga eng yaqin joylashgan sayyora. Uni qadimgi rimliklar savdo ma`budi - Merkuriy nomi bilan atashgan. Bu sayyora insoniyatga qadimdan ma`lum. O`lchamlari bo`yicha sayyoralar ichidagi eng kichik sayyora hisoblanadi. Merkuriy va Quyosh orasidagi masofa - 58 million kilometrni tashkil qiladi. Quyosh atrofida bu sayyora 88 kunda to`liq aylanib chiqadi. Merkuriyni fazoda 28° gacha yetuvchi nisbatan katta elongatsiyalar vaqtida kuzatish mumkin. Quyoshga o`ta yaqinligi, hamda, juda kichik o`lchamlari tufayli, Merkuriy uzoq vaqtgacha kam o`rganilgan sayyora bo`lib qolavergan. Faqat 1965 yilga kelib, radiolokatsiya usullarini qo`llash natijasida Merkuriyning o`z o`qi atrofida aylanish davri hisoblab topildi. U 58.65 kun, ya`ni sayyoraning Quyosh atrofida aylanish davrining $\frac{2}{3}$ qismiga teng ekan. Bu degani, Merkuriydagi kunduz davomiyligi-Quyosh sutkasi 176 kun davom etishini anglatadi. Merkuriyning aylanish burchagi uning orbita tekisligiga nisbatan

deyarli perpendikulyar. Merkuriyning akslantirish xususiyati -albedo juda kichik bo`lib, taxminan 0,07 ni tashkil qiladi. Quyoshning zenitdagi vaqtida sayyora sirtining harorati 620 K gacha, tungi qutblarining harorati esa 110 K atrofida bo`ladi. Merkuriy sayyorasining ko`rinadigan yulduz kattaligi 1,9 dan, 5 gacha qiymatlarda o`zgarib turadi. Merkuriy sirtining issiqlik xususiyatlari oy regolitnikiga o`xshash. Umuman olganda Merkuriy tashqi ko`rinishi jihatidan oyga juda o`xshab ketadi. O`ta siyrak bo`lgan sayyora atmosferasi tashqi meteorit bombardimonlariga deyarli qarshilik qilmaydi. Shu tufayli sayyora yuzasi kraterlar bilan to`la. Ulardan eng kattasi -Kaloris krateri bo`lib, uning diametri 1300 km. ba`zi kraterlardagi qora lavalarning mavjudligi, sayyora o`z tarixining ilk davrlarida kuchli, intensiv ichki vulqonlar girdobida bo`lganligidan dalolat beradi. Merkuriy atmosferasi o`ta siyrak. Uning zichligi Yer atmosferasining 620 km balandlikdagi zichligidan ham kichik. Merkuriy atmosfera tarkibida vodorod, geliy, hamda kislorodning, shuningdek inert gazlar, xususan, neon va argonning kichik miqdorlari aniqlangan. Bunday gazlar, sayyora gurunti tarkibidagi radioaktiv moddalarning parchalanishi natijasida ajralib chiqqan bo`lishi mumkin. Merkuriyda kuchsiz magnit maydoni mavjudligi aniqlangan. Merkuriy magnit maydonining kuchlanganligi qiymati Yernikiga nisbatan kichik bo`lsa, ammo Marsnikidan katta. Sayyoraning o`rtacha zichligi Oynikiga nisbatan ancha katta - 5.427 g/sm^3 , ya`ni, yerning zichligiga deyarli teng. Merkuriy 500 – 600 kilometrdan iborat kuchli silikat qobiqqa va 50% miqdordagi temir yadroga ega ekanligi haqida gipoteza mavjud. Sayyoraning tabiiy yo`ldoshlari yo`q. Merkuriy nisbatan kam o`rganilgan sayyoradir, faqat 2009 yilga kelibgina sayyora sirtining taxminiy xaritasi tuzildi. Bu jarayonda asosan «Mariner-10» hamda, «Messenjer» kosmik apparatlari orqali olingan tasvirlardan foydalanildi. Merkuriyning paydo bo`lishi haqida bir necha farazlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani, Merkuriyning bir paytlar Veneraning tabiiy yo`ldoshi bo`lganligi, biroq, ma`lum sabablarga ko`ra undan «qochib» ketganligidir. Bu farazni Merkuriy orbitasining katta ekstsentrositeti bilan izohlaydilar. Merkuriy haqida



ilk ma`lumotlar qadimgi Bobilliklarga tegishli «Mul apin» astrolog jadvallarida uchraydi. Bu jadvallarni Ossuriyalik munajjimlar ishlab chiqishgan bo`lib, ularda Merkuriy «Sakrovchi sayyora» deb nomlangan. Qadimgi Yunonistonda esa, Merkuriyni Στίλβων («Stilbon») va Ἐρμάων («Germaon») deb atashgan. «Germaon» - ma`bud Germes ismining o`zgartirilgan shakli bo`lib, keyingi davr yunon qo`l yozmalarida bu sayyora «Apollon» nomi bilan ham atalgan. Xitoyliklar esa merkuriyni «Chen-Sin» (辰星) - Tong yulduzi deb atashgan.







5.6.Venera

Venera - Quyoshdan uzoqligi bo`yicha ikkinchi va Yerga eng yaqin sayyora. Venera Quyosh tizimidagi sayyoralar orasida ayol ismi bilan ataladigan yagona sayyora bo`lib, u qadimgi Rim Panteoni Muhabbat ma`budasi sharafiga shunday atalgan. Venera insoniyatga qadimdan ma`lum. Uning fizik jihatdan yerga o`xshashligi tufayli, «Yerning singlisi» deb ham ataladi. Quyoshdan o`rtacha uzoqligi 108 million kilometr (0,723 a. b.). Quyosh atrofida to`liq aylanib chiqish davri 224.7 kun. Venera Yerga 40 million km gacha yaqinlashib kelishi mumkin, va bu degani Quyosh tizimidagi barcha boshqa sayyorlar ichida Yerga eng yaqin keladigan sayyora bu aynan -Venera hisoblanadi. Sinodik davri 583.92 kunga teng. Veneraning eng yaxshi ko`rinadigan vaqtłari elongatsiya davrlariga to`g`ri keladi. Quyoshdan burchak masofasi 48° dan ortmagani uchun elongatsiya vaqtlaridagi ko`rinish yoki shom oqqan paytda, yoki, tong otar chog`ida paydo bo`ladi. Shuning uchun ham Venerani «Tong yulduzi» deb atashadi. Venera - yerdan ko`rinadigan osmon jismlari orasida Quyosh va Oydan keyingi eng yorqin osmon jismi hisoblanadi. Venera diametri Yer diametrining 95% qismiga teng va 12104 km tashkil qiladi. Massasi Yer massasining 81.5% qismi - $4,8685 \cdot 10^{24}$ tonna. O`rtacha zichligi – 5220 kg/m^3 . Sirtidagi erkin tushish tezlanishi 8.87 m/sek^2 (Yernikiga nisbatan 90%). Veneraning o`z o`qi atrofida aylanish davrini hisoblash uzoq vaqtgacha imkonsiz bo`lib, bunga sayyorani o`rab turgan qalin bulutli qatlam mone`lik qilar edi. Faqat radiolokatsiya usullarini qo`llash natijasida Veneraning o`z o`qi atrofida aylanish davri 243.2 kunga teng ekanligi va u Yer va boshqa sayyorlarga nisbatan teskari tarafga aylanishi ma`lum bo`ldi. Aylanish o`qining orbita tekisligiga nisbatan og`ish burchagi deyarli 90° . Sayyoraning atmosferasi mavjudligini, uning Quyosh diskini bo`ylab o`tish jarayonini kuzatgan M. Lomonosov 1761 yilda aniqlagan. XX asrda olib borilgan spektral tahlil natijalariga ko`ra Venera atmosferasining 97% qismini CO_2 gazi tashkil qilishi aniqlandi. Shuningdek, Venera atmosferasida 2% miqdorda azot va boshqa inert gazlar, hamda 0.1% miqdorda suv bug`lari,



shuncha miqdorda kislorod mavjudligi aniqlangan. Venera atmosferasidagi gaz va suv bug`lari, issiqxona effekti hodisasini sodir qiladi. Ushbu ikki gaz Veneraning o`ta qizigan sirti chiqarayotgan infraqizil nurlarni kuchli yutuvchi xususiyatiga ega va shu tufayli sayyora sirtidagi harorat 500°C gacha qiziydi. Sayyora sirtini bizdan to`sib turuvchi qalin bulutlar qatlami taxminan 49 – 68 km balandlikdagi yengil tuman ko`rinishida bo`lib, ochiq koinotdan qaralganda uning ekvatoriga parallel qatlamlar tarzida ko`rinadi. Ushbu bulutlarning tarkibi suvda erigan oltingugurt kislotasi tomchilaridan iborat deb taxmin qilinadi. Sayyora sirtining yoritilganligi, Yerdagi bulutli, quyoshsiz kunni eslatadi. Sayyoraning bulutlar balandligida 100 metr/soniya tezlikdagi doimiy shamollar esib turadi. Sayyora sirtidagi atmosfera bosimi 9 MPa bo`lib, uning zichligi yer atmosferasiniidan 35(!) marotaba katta. Venera atmosferasining yuqori qatlamlari (5500 km balandliklarda) deyarli to`liq vodoroddan iborat. Radiolokatsiya yordamida Venera sirtida ham xuddi Oy va Merkuriydagi kabi kraterlar mavjudligi va ularning diametri 35 - 150 km gacha ekanligi aniqlandi. Lekin Venera sirti Oy va Merkuriyindan ko`ra ancha tekis. Unda 1500 km gacha cho`zilgan botiqliklar, tog` tizimlari, Vulqon va havzalar mavjud.

Quyida xaritalarda Venera sayyorasini 2017 yil yulduzlar fonida harakat yo`llari tasvirlangan. Birinchi xaritada sayyora 1 yanvardan 30 iyulgacha harakat yo`li tasvirlangan bo`lsa, ikkinchi xaritada 1 avgustdan 10 oktyabr oyigacha sayyoraning yulduzlar fonidagi haarkat yo`li tasvirlangan. Sayyora Mart-Aprel-May oylarida sirtmoqsimon ko`rinma harakatda bo`ladi. 2017 yil 12 yanvar kuni kechki elongatsiyaga erishadi. 25 mart kuni esa qiyosh bilan quyi birlashishda bo`ladi. 3 iyun kuni sayyora ertalabgi elongatsiyaga erishadi.



Venera 2017 yil 12 Yanvar Buxoro osmonida ko'rinishi

Венера

Баланс магнитуда: -4,37
Абсолют. Магнитуда: 25,48
RA(DEC) (2000): 23h49m33,3s +09°26'51''
RA(DEC) (J2000): 23h49m33,3s +09°26'51''
Небесный угол: 346°08'49''/95°27'47''
Диаметр: +29'23''/+10'07''
Расстояние: 0,66250453AU
Альбедо диаметр: +0%/-0%



Venera 2017 yil 4 iyun Buxoro osmonida ko'rinishi

Венера

Баланс магнитуда: -4,28
Абсолют. Магнитуда: 25,52
RA(DEC) (2000): 09h52m36,3s +09°26'21''
RA(DEC) (J2000): 09h52m36,3s +09°26'21''
Небесный угол: 346°02'29''/95°24'24''
Диаметр: +29'23''/+10'07''
Расстояние: 0,7035724AU
Альбедо диаметр: +0%/-0%







5.7.Mars

Mars-Quyoshdan uzoqligi bo`yicha to`rtinchi sayyora. Qadimgi Rimliklarning urush ma`budi Aresning nomi bilan atalgan. Mars ham Merkuriy va Venera singari insoniyatga qadimdan ma`lum. Yulduzli osmonda u qizil rangdagi jimirlamaydigan nuqta ko`rinishida namoyon bo`ladi. Uning yorqinligi vaqtigaqti bilan birinchi kattalikdagi yulduzlarning yorqinligidan ham ortiq bo`lib yarqiraydi. Mars davriy ravishda Yerga 57 mln km gacha masofada yaqinlashib keladi. Fizik parametrlariga ko`ra Mars Yer guruhi sayyoralarini turkumiga mansub. Diametriga ko`ra u Yer va Veneradan deyarli ikki marta kichik. Sayyora gaz qobig`i-atmosfera bilan o`ralgan bo`lib, Mars atmosferasining zichligi Yernikiga nisbatan ancha siyrak. Marsning eng chuqur botiqliklarda ham atmosfera zichligi yer sirtidagi atmosferasi zichligidan 100 barobar kichik. Shunga qaramay Mars atmosferasida bulutlar mavjud. Ochiq kunda Mars osmoni pushti rangda bo`ladi. Kimyoviy tarkibiga ko`ra Mars atmosferasi Yer atmosferasidan tubdan farq qiladi va u 95.3% CO₂ gazi, 2.7% Azot, 1.6% Argon gazlaridan iborat. Kislorod esa faqat 0.013% ekanligi aniqlangan. Bulardan tashqari, spektral tahlil yordamida Mars atmosferasida Ksenon, Neon, hamda Kriptonlar ham mavjudligi aniqlangan. Bulutsiz Mars osmoni Yernikiga nisbatan ancha shaffof va u ultrabinafsha nurlarini ham o`tkazib yuboradi. Marsning bir marta o`z o`qi atrofida aylanib chiqishi uchun 24 soat 39 daqiqa 35 soniya vaqt ketadi. Marsning Quyosh atrofida bir marta to`liq aylanib chiqish davri esa 686.9 kun. Ya`ni Yer yilining 1.9 qismiga to`g`ri keladi. Sirtida harorat 290K gacha qiziydi. Qutblarda esa qishki mavsumlarda 150K gacha pasayadi. Marsda ham Yerdagi singari fasllar almashinushi ro`y beradi. Buni kuzatishlardagi Mars «qalpog`i»- qutblardagi muzliklarning erib kichrayishi yoki aksincha, uning qarama-qarshisidagi muzlikning kattalashuvidan aniqlash mumkin. Mars qutblaridagi ushbu muzliklar, Mars atmosferasi tarkibidagi CO₂ gazining muzlashi natijasida qattiq fazaga o`tishidan hosil bo`ladi. Mars haqidagi dastlabki astronomik kuzatishlar qayd qilingan yozma manbalar eramizdan avvalgi 3.5 ming yilliklarga tegishli

Bobilliklarning astronomik jadvallari va ierogliflari hisoblanadi. O`rta asrlar hind va musulmon sharqi munajjimlari Marsning o`lchamlarini va undan Yergacha bo`lgan masofa hisoblab chiqishgan XVI asrga kelib Nikolay Kopernikning gelotsentrik modeli asosida Iogann Kepler Marsning ekliptik orbitasining aniq keltirib chiqardi. Marsni kuzatish, teleskop kashf etilgach yana jadallahdi. 1659 yilda Franchesko Fontanna teleskopik kuzatishlar asosida Mars sirtini tasvirini chizdi. 1660 yilda Dominik Kassini Marsning qutblarini aniqlab, tasvirga tushirdi. 1888 yilda Jovanni Skiaparell Mars sirtidagi alohida detallarga nom berishni boshladi: Adriatika, Kimmeriya, Feniks kabi dengizlar nomlarini aynan u bergen. XIX asrga kelib Marsni o`rganish yana yangi bosqichga kirdi. Bu davrda Marsda kanallarning mavjudligi haqidagi xabar asnosida, Marsda hayot bor yoki, yo`qligini aniqlash bo`yicha tekshirishlar avj oldi. Koinotni zabit etish erasidan avvalgi davr astronomlari ichida Marsni tadqiq qilganlardan Persival Louell, Slayfer, Antoniadi, Leddi, Vokulyer, Tixovlarning izlanishlari ko`p samara keltirdi. Lekin baribir, Marsni nisbatan mukammal tadqiq qilish, unga tomon 1960 yillarda «Fobos», «Deymos», «Mariner», «Viking», «Mars Global Surveyor» kabi fazoviy dasturlarning uchirilishidan keyin boshland. 1965 yilda «Mariner-4» Marsga yetib borgunicha, ko`plab tadqiqotchilar Marsda suyuq holatdagi suv mavjud degan taxminda edilar. Bu tasavvur asosan, Mars sirtidagi va qutblaridagi mavsumiy o`zgarishlarning vizual tahliliga asoslangan edi. Mariner orqali olingan ma`lumotlar esa, suyuq suv haqidagi tasavvur beruvchi rang o`zgarishlari ko`z aldanishi -optik illuziya ekanligini tasdiqladi. Marsda suv qadim zamonlarda bo`lgan bo`lishi mumkin. 1975 yilda Mars relyefining xaritasi tuzildi. Mars gurunti namunalarining tekshiruvlarida temir va kremniyning oksidlari aniqlandi. Mars tuprog`ida oltingugurt (sulfatli birikmalar ko`rinishida) miqdori Yer qobig`idagidan ancha marta ko`p. Mars sirtida vulqonlar harakatidan ham, meteoritlar zarbasidan ham hosil bo`lgan kraterlar mavjud. Mars relyefining eng yuqori va eng chuqur qismlari farqi 20 km ni tashkil qiladi. 2008 yil 31 iyul kuni NASAning «Feniks» fazoviy apparati Marsda muz parchasini topdi. 2009

yildan buyon Mars orbitasida uchta orbital tadqiqot apparatlari - «Mars Odissey», «Mars Ekspress» va «Marsni tekshirish yo`ldoshi» ishlab turibdi. Mars sirtida esa «Opportunity» va «Kuryositi» Marsaxodlari ishlamoqda. Shuningdek Mars sirtida avval ishlab, hozirda faoliyatdan to`xtagan apparatlar mavjud. Marsni Yerdan turib qurollanmagan ko`z bilan ham yaqqol ko`rish mumkin. Uning ko`rinadigan yulduz kattaligi $-2,91\text{m}$ gacha yetadi. Marsning ikkita tabiiy yo`ldoshi – Fobos va Deymos mavjud.

Marsning shimoliy yarim sharidagi Deuteronilus Mensae hududi insonlarning birinchi ekspeditsiyasi uchun mos keluvchi joy bo`lishi mumkin. Sababi, u erda katta miqdorda suv muzliklari mavjud. Tadqiqotchilar ishonib aytishicha, aynan shu hududda o`zga sayyoraliklar hayotini kashf etish mumkin. Bu haqda xabar qilmoqda. Olimlar tomonidan aniqlangan mintaqaning radiusi 100 kilometrga yaqin bo`lib, u Utopiya va Xris tekisliklari orasida joylashgan. Hududning aniq koordinatalari — 39,1 daraja shimoliy kenglik va 23,1 daraja sharqiy uzunlik. Dunyoning etakchi fazoviy agentliklari avvalari juda ko`p marotaba Marsga ekspeditsiya jo`natish rejasiga haqida ma`lum qilishgan. Jumladan, NASA astronavtlarni mazkur sayyoraga 2030 yillardan joylashtirishni rejallashtirgan. Amerikaning xususiy SpaceX kompaniyasi Marsga o`z missiyasini 2024 yilda yuborish niyatida. 29 sentyabr` kuni AQSHlik tadqiqotchilar Journal of Geophysical Research: Planets nashrida Mars platosi Tavmasiyani tirik organizm uchun eng munosib joy deb atashdi. Quyida xaritalarda Mars sayyorasini 2017 yil yulduzlar fonida harakat yo`llari tasvirlangan. Birinchi xaritada sayyora 1 yanvardan 30 iyun oylari mobaynidagi harakat yo`li tasvirlangan bo`lsa, ikkinchi xaritada 1 iyuldan 28 dekabr oyigacha sayyoraning yulduzlar fonidagi haarkat yo`li tasvirlangan. 2017 yil 27 iyul kuni birlashishga erishadi.



5.8.Yupiter

Yupiter Quyosh tizimidagi eng katta sayyora. Quyoshdan uzoqlashish tartibida beshinchi va Yerga nisbatan Quyoshdan 5.2 marta uzoqroq masofada harakatlanadi. Yupiter Quyosh atrofida deyarli 12 yilda bir marotaba to`liq aylanib chiqadi. Uning ekvatorial diametri Yernikidan 11,2 marta katta bo`lib, 142984 ± 2 km ni tashkil qiladi. Yupiterning o`z o`qi atrofida aylanish davri, boshqa sayyorlarga nisbatan eng kichik bo`lib, ekvatorida 9 soat, 50 daqiqa va 30 soniyani, o`rta kengliklarida esa, 9 soat, 55 daqiqa va 40 soniyani tashkil qiladi. Shu tarzda Yupiter ham xuddi Quyosh singari qattiq jism kabi aylanmay balki, turli qismlarida turlicha aylanish tezligi hosil qiladi. O`ta tezkor aylanishi tufayli bu sayyora qutblarida katta siqilish va zichlikning ortishi paydo bo`ladi. Yupiter massasi Yer massasidan 318 barobar katta. O`rtacha zichligi esa 1.326 gr/sm^3 bo`lib, Quyoshning o`rtacha zichligiga yaqin qiymat hisoblanadi. Yupiterning aylanish o`qi uning orbitasiga deyarli perpendikulyar – burchak 87° . Ekvatoridagi erkin tushish tezligi 24.79 m/s^2 yerdan kuzatilganida Yupiterning yorqinligi, Oy va Veneradan keyingi uchinchi eng yorqin osmon jismi bo`lib, buyuk qaramaqarshilik vaqtlarida uning ko`rinadigan yulduz kattaligi $-2,94\text{m}$ gacha yetadi. Yupiter yerdan eng uzoqlashganida esa, uning yulduz kattaligi $-1,61\text{m}$ gacha xiralashishi mumkin. Yer va Yupiter orasidagi masofa 588 milliondan 967 million km gacha bo`lgan masofada o`zgarib turadi. Sayyoraning Quyoshdan o`rtacha uzoqligi 778,57 million km (5.2 a.b.). Mazkur sayyoraning ekvator tekisligining orbita tekisligiga nisbatan og`ishi atiga $3,13^\circ$ bo`lganligidan, bu sayyorada fasllar almashinushi bo`lmaydi. Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar qatlami bilan o`rab olingan. Yaqqol ko`zga tashlanadigan manzaralardan biri – ulkan qizil dog` bo`lib, u XVII asrdan buyon olimlar nigohida. Qizil dog` ning o`lchamlari 35000 ga 14 000 km radiuslardagi ovalsimon shakl bo`lib, sayyoraning janubiy tropik va janubiy mo`tadil kengliklari o`rtasida joylashgan. Qizil dog` shakli va rangi vaqt bo`yicha davriy o`zgarib turadi. Masalan, uning XX asr boshidagi

o`lchamlari XXI asr boshidagidan deyarli ikki barobar katta bo`lgan. Katta qizil dog` o`ziga xos uzoq yashovchi ulkan uyurma bo`lib, u soat miliga qarshi yo`nalishda aylanib, 144 yer soatida bir marta to`liq aylanib chiqadi. Ulkan qizil dog`dan tashqari, hozirgi vaqtida (2000 yildan buyon) Yupiterda yana bir qizil dog` – kichik qizil dog` ham paydo bo`lgan. U 1938 yili Yupiterning 30° janubiy kengligida paydo bo`lgan uchta ovalsimon oq dog`larning (uyurmalar) o`zaro bir-biriga yaqinlashib, oxiri, avvaliga 1998 yilda ikkitasining, keyinchalik, 2000 yilda uchinchisining ham avvalgi ikkitasiga birlashib ketishidan hosil bo`ldi. 2005 yilda esa bu uyurma ham qizil tusga kira boshladi va u endilikda kichik qizil dog` deb yuritilmoxda. 2006 yilda katta va kichik qizil dog`lar bir-biriga o`ta yaqin masofada yaqinlashib keldi. Ko`pchilik olimlar ularning o`zaro birlashib ketishini taxmin qilishgan edi. Biroq, dog`lar, o`zaro urinma bo`yicha teginib, qayta uzoqlasha boshladi. Yupiter atmosferasi 89.8% vodorod va 10.2% geliydan iborat. Metan 0.2% va ammiak 0.1% ulushlarda bo`lib, kam miqdorda etan, atsetilen, fosfen, va suv bug`lari mavjudligi aniqlangan. Yupiter atmosferasi qalin va quyuq bulutlar qatlami bilan qoplangan. Yupiter bulutlari ammiakning kristallangan va shabnamlangan ko`rinishlaridan iborat. Yupiterning atmosferasida ham yer atmosferasidagi singari, Ekzosfera, Termosfera, stratosfera, tropopauza va troposferalarni ajratish mumkin. Yerdan farqli ravishda, Yupiter atmosferasida mezosfera va Mezopauza mavjud emas. Atmosferaning yuqori qatlamlari harorat juda baland. Sayyora atmosferasidan ichkarilagani sari, tropopauzagacha harorat pasayib boradi. Termosferada Yupiter o`z nurlanishining eng katta qismini yo`qotadi. Aynan Termosferada, Yupiterning ionosferasi va qutb yog`dusi shakllanadi. Atmosfera qatlami 1000 km dan iborat bo`lib uning eng quyi qatlamlarida toza gaz qavatidan keyin qalin bulutli qatlamni teleskoplarda ko`rish mumkin. Suyuq molekulyar holatdagi vodorod qatlami 24000 km. Bu qatlama bosim 300 GPa, harorat esa 11000 K gacha yetadi. Keyin esa, suyuq metall vodorod qatlami bo`lib, u 42000 km qalinlikda va o`z ostida kichik o`lchamli temir-silikatli yadroni saqlaydi. Yadro radiusi 4000 km atrofida. Yadro




va metall vodorod qatlami chegaralarida harorat 30 000K gacha yetib borad. Yupiter chiqaradigan issiqlik miqdori uning Quyoshdan oladigan issiqlik energiyasi miqdoridan ikki barobar ko`proq. Bunga sabab esa, sayyoraning doimiy ravishda ammo sekinlik bilan (yiliga 1 mm) siqilib borayotganligidan bo`lishi mumkin. Sayyoraning magnit maydoni murakkab bo`lib, yaxshi o`rganilmagan. U ikki qismdan iborat: dipolli maydon Yupiterda 1.5 mln km masofagacha tarqaladi va ikkinchisi -nodipolli magnit maydoni magnitosferaning qolgan qismini egallaydi. Hozirgi vaqtda olimlar, Yupiter magnit maydoni nafaqat dipol va nodipolli maydonlar, balki, kvadropol, oktupol va boshqa garmonikalarga ham egaligi haqida ilmiy farazlarni ilgari surishmoqda. Yupiter sirtidagi magnit maydon kuchlanganligi 10 -15 ersted bo`lib, Yernikidan deyarli 20 barobar kuchli. Yupiterning magnit qutblari yerning magnit qutblariga nisbatan teskari joylashgan. Hozirda Yupiterning 67 ta tabiiy yo`ldoshi aniqlangan bo`lib, quyosh tizimi sayyoralari orasida bu eng katta ko`rsatkich hisoblanadi. Yupiter yo`ldoshlari ikki turkumga – ichki va tashqi yo`ldoshlarga tasniflanadi. Ulardan eng kattalarini -Io, Gannimed, Yevropa va Kallistoni 1610 yilda Galileo Galiley kashf etgan edi. Bu yo`ldoshlar va sayyoraga eng yaqin masofadagi Amalteya yo`ldoshi Yupiter ekvatori tekisligidagi fazoda harakatlanishadi. Yupiterning eng katta, ya`ni, Galiley yo`ldoshlari ichida, eng qiziqlarisi bu - Yevropa hisoblanadi. Chunki bu yo`ldoshda, xuddi yerdagi kabi ulkan ummon mavjud bo`lib, uning chuqurligi 90 km gacha yetadi. Yevropa ummonining hajmi, Yerdagи dunyo okeani hajmidan ancha katta. Olimlarning fikricha, Yevropadagi ummonda, bir hujayrali organizmlar uchun yetarli darajada hayot sharoiti mavjud bo`lishi mumkin ekan. Yevropaning sirti qalin muz qatlami va undagi keng yo`l-yo`l chiziqlar bilan o`ziga xosdir. Io esa, astronomlarni o`ta faol vulqonlari bilan o`ziga jalb etadi. Ioda butun quyosh tizimidagi eng faol vulqonlar mavjud bo`lib, yo`ldosh sirti, vulqon chiqindi jinslari bilan qoplangan. Gannimed esa, nafaqat Yupiterdagi, balki, butun quyosh tizimidagi tabiiy yo`ldoshlar ichida eng kattasi hisoblanadi. Uning sirti kraterlar bilan qoplangan va ulkan yoriqlar -daralar mavjud.



Kallistoda ham uning sirti ostida joylashgan ummon borligi taxmin qilinadi. Bunga ayrim ishoratlar mavjud bo`lib, ular orasida, Kallistoning kuchli magnit maydonini biror bir o`ta o`tkazgich suyuqlik hosil qilishi mumkinligi ta`kidlanadi. Galiley yo`ldoshlarining o`ziga xosligi shundaki, ular, doimo sinxron ravishda, Yupiterga faqat bir tarafi bilan yuzlangan holatda harakatlanishadi. Undan tashqari, bu yo`ldoshlarning o`z sayyorasidan uzoqlashishi tartibida zichligining kamayib borishi ham xarakterli. Masalan, Io - 3,53 g/sm³, Yevropa- 2,99 g/sm³, Gannimed - 1,94 g/sm³, Kallisto esa - 1,83 g/sm³ o`rtacha zichlikka ega. Bu ko`rsatkich, yo`ldoshdagi suv miqdoriga bog`liq bo`lib, masalan Ioda u deyarli yo`q, Yevropada 8%, Gannimed va Kallistoda esa ularning massasining deyarli yarmini tashkil qiladigan miqdorni egallashi ilmiy farazlarda ilgari surilgan. Yupiterning qolgan yo`ldoshlari ancha kichik o`lchamlarda bo`lib, qoyasimon notekis shakllardagi jismlardir. Kichik yo`ldoshlar ichida eng qiziqarlilari bu Metida va Adrasteya bo`lib, ular radiusi 128 ming kilometrlik orbita bo`ylab, sayyorani 7 soat ichida to`liq aylanib chiqadi va bu Yupiter yo`ldoshlari ichida eng tez aylanadiganlaridir. Yupiter yo`ldoshlarining nomi «e» bilan yakunlanadiganlari, qolganlariga nisbatan teskari yo`nalishda harakatlanishadi. Masalan Ananke, Karme, Sinope va Pasife shunday yo`ldoshlardandir. Yupiterning barcha yo`ldoshlari tizimining umumiy diametri 124 million km ni tashkil etadi. Olimlarning fikricha uzoq o`tmishda Yupiterning yo`ldoshlari yana ham ko`p bo`lgan bo`lishi mumkin. Ulardan aksariyati ulkan sayyoraning ulkan gravitatsiya ta`sirida sayyora sirtiga qulab tushgan bo`lishi mumkin ekan. Yupiter ekvator tekisligida sirtidan 50000 km masofada joylashgan siyrak halqasi mavjud.

Yupiter sayyorasining 2017 yil yulduzlar fonida harakat yo'li va 22 noyabr kuni erta tonggi osmin-da ko'rinishi.





5.9. Saturn

Saturn Quyosh tizimidagi sayyoralar ichida kattaligi bo`yicha ikkinchi, Quyoshdan uzoqlashish tartibida oltinchi sayyora bo`lib, Quyosh atrofida to`liq aylanib chiqish davri 29.46 yil ni tashkil qiladi. Bu sayyora, quyosh tizimidagi qurollanmagan ko`z bilan ham ko`rib bo`ladigan 5 ta sayyoraning biri bo`lib, uning ko`rinadigan yulduz kattaligi birinchi yulduz kattaligidan ham yorqinroqdir. Garchi ekvatorial diametri Yupiternikidan ozgina kichik bo`lsa hamki, massasiga ko`ra Yupiterdan ancha farq qiladi – deyarli uch barobar. O`rtacha zichligi juda kichik – 0.7 gr/sm³. Kichik zichlik shu bilan izohlanadiki, bu gigant sayyora asosan vodorod va geliydan tashkil topgan bo`lib gaz gigantlari turkumiga kiradi. Lekin uning sirtidagi bosim ham Yupiterdagidek katta emas. Saturnning ekvatorial radiusi 60300 km, qutb radiusi esa 54400 km ni tashkil qiladi. Uning massasi Yernikidan deyarli 95 marta katta, lekin uning o`rtacha zichligi esa, 0.69 g/sm³ bo`lib, quyosh tizimi sayyoralari ichidagi, o`rtacha zichligi, suvning o`rtacha zichligidan kichik bo`lgan yagona sayyoradir. Sirtidagi erkin tushish tezlanishi 10.44 m/soniya². Saturn quyosh atrofida 29.5 yilda bir marta to`liq aylanib chiqadi. Undan quyoshgacha bo`lgan masofa 1430 million km, yoki, 9.58 a.b. ni tashkil qiladi. Orbita bo`ylab aylanish tezligi 9.69 km/soniya. Spektral tahlil yordamida Saturn atmosferasida bir necha xil molekulalar aniqlandi. Saturn bulutlari aftidan sayyoradagi eng qattiq jismlar bo`lsa kerak. Saturndagi atmosferada metan gazi erish haroratiga yaqin -184 °C sharoitda bo`ladi. Saturn atmosferasi 96,3 % vodorod va 3,25 % geliydan iborat. Bundan tashqari etan, fosfen, ammiak va boshqa gazlarning aralashmalari aniqlangan. Saturn atmosferasining yuqori qatlamlari kuchli ammiak bulutlaridan iborat. Quyi atmosfera qatlamlarida esa ammoniy gidrosulfid (NH_4SH) bulutlari aniqlangan. Saturn atmosferasida tezligi 500 m/soniyagacha yetadigan kuchli dovullar esishi qayd etilgan. Saturnda ham Yupiterdagidek o`ziga xos, ko`zga darhol tashlanadigan tashqi dog`lar kuzatiladi. Ulardan biri ulkan oq oval har 30 yilda bir marta paydo bo`ladi. Saturnda ham magnitosfera mavjud ekanligini ilk marta 1979 yilda «Pioner-11» fazoviy apparati orqali kashf etilgan edi. Saturn magnit

maydoni va Quyosh shamoli uchrashadigan chegara Saturndan 20 radi masofada joylashgan. Teleskop orqali kuzatilganda dastlab ko`zga tashlanadigan yaqqol manzara Saturn ekvatori bo`ylab uni o`rab turgan halqa bo`lib, undan tashqari, xiraroq rangdor dog`larni ham ko`rish mumkin. Saturn halqasini 1610 yilda Galileo Galiley kashf qilgan edi. Bu Quyosh tizimidagi eng hayratlanarli hodisalardan biri bo`lib, halqa Saturnni butun ekvator tekisligi bo`yicha qurshab olgan va sayyora sirtiga umuman yaqin kelmaydi. Saturn halqasi, oraliqlarini fazo bo`shlig`i ajratib turuvchi bir necha konsentrik halqalardan iborat. Ularni lotin alifbosidagi harflar bilan belgilanadi. Sayyora sirtidan eng chetki bo`lgan tashqi - A halqa, ikkinchi va eng yorqin B halqa, ichki halqa -C, hamda, Saturn sirtiga eng yaqini, va undan alohida holatda ko`rish mushkul bo`lgan D halqalardan iborat. Shuningdek, deyarli shaffof bo`lgan D halqa ham aniqlangan. Saturnning barcha halqalari sayyora atrofida aylanadi. Ichki halqalar tashqi halqalardan ko`ra kattaroq tezlik bilan aylanishi ma`lum. Halqalar tekisligi Saturn ekvatori tekisligiga nisbatan deyarli mos keladi va orbita tekisligiga esa 27° burchak ostida og`ish bilan, doimiy ravishda sayyora gravitatsiyasi ta`sirida turadi. Ular asosan 1-3 sm o`lchamdagisi son sanoqsiz mayda tabiiy yo`ldoshlardir. Zamonaviy ma`lumotlarga tayanadigan bo`lsak, halqalarning kengligi 3.5 km atrofida. Halqalarning umumiy tashqi diametri 275000 kilometrni tashkil qiladi. Saturnning tabiiy yo`ldoshlari mavjudligi haqida 1609 yilda dastlabki bo`lib uni teleskop orqali kuzatgan Galileo Galiley fikr yuritgan edi. Uning kuzatishlarida Saturn yagona yaxlit osmon jismi emas, balki o`zaro tutashgan jismlardek taassurot uyg`otganini yozadi. Lekin Galileyning o`zi Saturnning yo`ldoshlarini topa olmadi. 1659 yilda Xristian Gyugens yanada kuchliroq teleskop yordamida, Galiley kuzatgan hodisa aslida Saturnning halqalari ekanligini aniqlaydi. Shu yilning o`zida u Saturnning eng yirik tabiiy yo`ldoshi – Titanni ham kashf etdi. 1675 yildan boshlab Kassini ham Saturnni jiddiy o`rganishga kirishdi. U Saturn halqasi yaxlit bo`lmay, balki o`zaro bir-biridan aniq ajralib turuvchi alohida halqalardan iborat ekanligini aniqladi. Shuningdek Kassini Yapet, Tefiya, Diona

va Reya tabiiy yo`ldoshlarini kashf qildi. 1789 yilda U.Gershel Saturnning yaikkita tabiiy yo`ldoshini aniqladi – Mimas va Enselad. Keyinchalik Britaniyalik bir guruh olimlar tomonidan Giperion kashf etildi. 1899 yilda esa, Uilyam Pikering yana bir tabiiy yo`ldosh – Febani kashf qildi. Febaning o`ziga xosligi shunda ediki, u Saturn bo`ylab, sinxron aylanmasdan balki 500 kundan ziyod muddatda, teskari yo`nalishda harakatlanadi. 1944 yilda Jerard Koyper Saturnning tabiiy yo`ldoshi -Titanda atmosfera mavjudligini aniqladi. Bu Quyosh tizimidagi tabiiy yo`ldoshlar orasida atmosferaga ega bo`lgan yagona va noyob yo`ldosh hisoblanadi. XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida Saturnga yetib borgan kosmik apparatlar yordamida ushbu gaz gigantining yana bir necha o`nlab tabiiy yo`ldoshlari aniqlandi. 2009 yilda sayyoraga eng yaqin tabiiy yo`ldosh, diametri 300 metrlik S/2009 S-1, halqaga tashlagan soyasi orqali sezib qolindi. 2013 yilda Saturnning hozircha so`nggi tabiiy yo`ldoshi -Egeon tasnifga kiritildi. U 2008 yilda «Kassini» fazoviy apparatini tomonidan G halqasini o`rganish vaqtida kashf etilgan edi. Keyinchalik uni ancha avvalgi tasvirlarda ham mavjud bo`lib, faqat nazardan chetda qolganligi qayd etildi. Hozirgi kunda Saturnning jami 62 ta tabiiy yo`ldoshi ma`lum.

Saturnning tabiiy yo`ldoshlari:

No	Tabiiy yo`ldosh nomi	Sayyora sirtidan o`rtacha uzoqligi	Aylanish davri (kun)	Diamteri yoki o`lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim
1	Mimas	185600	0.94	500	1789	U. Gershel
2	Enselad	238100	1.37	600	1789	U. Gershel
3	Tetis (Tefiya)	294700	1.89	1000	1684	J. Kassini
4	Diona	377400	2.74	800	1684	J. Kassini



5	Reya	527100	4.52	1500	1672	J. Kassini
6	Titan	1221900	15.95	5500	1655	X. Gyugens
7	Giperion	1464100	21.28	400	1848	J. Bond
8	Yapet	3560800	79.33	1500	1671	J. Kassini
9	Feba	12944100	550.4*	300	1899	U. Pikering
10	Yanus	151500	0.75	350	1966	O. Dolfyus
11	Atlas	137670	0.6	49	1980	R. Terril
12	Prometey	139400	0.61	140	1980	Kollins
13	Pandorra	141700	0.63	110	1980	Kollins
14	Epimetey	151430	0.69	140	1980	Fauten
15	Telesto	294660	1.89	24	1980	Rentsema
16	Kallipso	294700	1.89	30	1980	Paku
17	Yelena	377400	2.74	36	1980	J. Lekasho
18	Pan	133600	0.57	20	1990	
19	Imir	23040000	1315.4	18	2000	
20	Piliak	15200000	686.9	22	2000	
21	Tarvos	17983000	926.2	15	2000	
22	Idjirak	11124000	451.4	12	2000	
23	Suttung	19459000	1017	7	2000	
24	Kiviok	11111000	449.2	16	2000	
25	Mundifari	18685000	952.6	7	2000	
26	Albioriks	16182000	738.5	32	2000	
27	Skadi	15541000	728.2	8	2000	
28	Erripo	17343000	871.2	10	2000	
29	Siarnak	17531000	895.6	40	2000	
30	Tryum	20474000	1094	7	2000	




31	Narvi	19007000	1004	7	2003	
32	Metona	194000	1.010	3	2004	
33	Pallena	211000	1.140	4	2004	
34	Polidevk	377400	2.740	4	2004	
35	Dafnis	136500	0.594	7	2005	
36	Egir	20735000	1116.5	6	2004	
37	Befind	17119000	834.8	6	2004	
38	Bergelmir	19338000	1006	6	2004	
39	Bestla	20129000	1084	7	2004	
40	Farbauti	20390000	1086	5	2004	
41	Fenrir	22453000	1260	4	2004	
42	Fornot	25108000	1490.9	6	2004	
43	Xati	19856000	1039	6	2004	
44	Girokkin	18437000	932	8	2006	
45	Kari	22118000	1233.6	7	2006	
46	Logi	23065000	1312.0	6	2006	
47	Skoll	17665000	878.3	6	2006	
48	Surt	22707000	1297.7	6	2006	
49	Anfa	197700	1.037	2	2007	
50	Yarnaksa	18600000	942	6	2006	
51	Greyp	18105000	905	6	2006	
52	Tarkek	17920000	895	7	2007	
53	Egeon	167500	0.80812	0.5	2008	
54	S/2004 S 7	19800000	1103	6	2005	
55	S/2004 S 12	19650000	1048	5	2005	



56	S/2004 S 13	18450000	906	6	2005	
57	S/2004 S 17	18600000	986	4	2005	
58	S/2006 S 1	18981000	970	6	2005	
59	S/2006 S 3	21132000	1142	6	2006	
60	S/2007 S 2	16560000	800	6	2007	
61	S/2007 S 3	20518500	1100	5	2007	
62	S/2009 S 1	117000		0.3	2009	

Zuhal atrofida aylanadigan 10 ta yo`ldosh bor. Sayora yuzasi teleskoplar yorib o`tolmaydigan atmosfera bilan qoplangan.Uning qobig`i turli metall - ma`danlar mineralidan iborat bo`lsa ajab emas. Lekin, baribir, Zuhalning o`ziga xos xususiyati uning sirli halqalaridir. Asosiy uch halqa aynan bir xil tekislikda joylashgan va bu sayyora ekvatori tekisligiga to`g`ri keladi. Halqalarning tashqi diametri, taxminan, 300 000 km. Halqalarning eng yorqini o`rtadagisidir. Uni tashqi halqadan eni 2900 km bo`lgan oraliq masofa ajratib turadi.Ichki halqa juda xira ko`rinadi. Kosmik yo`ldoshlarga o`rnatilgan asbob yordamida, bu uch halqadan tashqari yana bir necha tashqi halqalar va bitta ichki halqa borligi ham aniqlandi. Tashqi halqalar zo`rg`a ko`rinadi.Ichki halqa esa, taxminan, Zuhal atmosferasida suzib yurgan bulutlar balandligida joylashgan. Zuhal halqalari o`lchami zarradan tortib 1 km va undan katta milliardlab qattiq jismlardan iborat, ular Quyosh nurini o`zida aks ettiradi. Bu jismlar aylana orbita bo`ylab harakat qiladi va bir-biri bilan to`qnashib ketmaydi.

SATURN sayyorasining 2017 yildayulduzlar osmonida harakat yo'li hamda 2017 yil 1 yanvar erta tongda sharq tomonda ko'rinishi





5.10.Uran

Uran – Quyosh tizimidagi tartib bo`yicha yettinchi, hajmi bo`yicha esa Yupiter va Saturndan keyingi uchinchi sayyoradir. Uran sayyorasini tungi osmonda qurollanmagan ko`z bilan ko`rib bo`lmaydi va shu tufayli uzoq asrlar davomida mazkur sayyora haqida odamlar bilishmagan. Uranni 13-mart, 1781 yilda ingliz astronomi Uilyam Gershel kashf etdi. Gershelning kashfiyotiga qadar ham Uranni boshqa olimlar ham kuzatishgani ma`lum, lekin ular har safar bu sayyorani oddiy yulduz sifatida qabul qilaverishgan. Masalan, uni 1690 yilda Jon Felmstid 6 marta kuzatib, biroq uni Buzoq yulduz turkumiga mansub 34-yulduz sifatida qayd etadi. 1750-1769 yillar orasida farang astronomi Pyer Sharl le Monyer ham Uranni 12 marta kuzatib, baribir uni yulduz sifatida qabul qiladi. Umuman olganda Gershelgacha bo`lgan vaqtida Uran 21 marta astronomlarning teleskopi obyektivida namoyon bo`lgan, biroq uning Quyosh tizimidagi tartib bo`yicha yettinchi sayyora ekanligini aynan Uilyam Gershel hammadan avval fahmladi. O`sha vaqlarda Gershel yulduzlar parallaksini aniqlash uchun olib borilayotgan umumiy kuzatuvlarda ishtirok etayotgan edi. Buning uchun u o`z konstruksiyasi asosida maxsus teleskop yasab, Buyuk Britaniyaning Bat shahridagi «Nyu King strit» ko`chasi, №19-uyda joylashgan o`z hovlisidagi bog`da doimiy kuzatish olib borar edi. 13-mart 1781 yilda u Uranni ilk marta ko`rishga muvaffaq bo`ldi. Bu haqda Gershel faqat bir yarim oydan keyin – 26 may kuni ma`lum qildi. Dastlabki ma`lumotlarida Gershel ham Uranni avvaliga kometa deb o`ylagan. Biroq 17-martdagи kuzatish natijasiga ko`ra, «kometa» (ya`ni, Uran) o`z vaziyatini o`zgartirgan edi. Gershel teleskop linzasining optik kuchini o`zgartirib ko`rish orqali, uning haqiqatan ham yulduz emas, balki kometa ekanligiga ishonch hosil qildi. Biroq keyingi kuzatuvlardan keyin, kometaning na dumi na kallasi yo`qligi, kometa esa dum va kallasiz bo`lmasligini e`tirof etib, demak bu osmon jismi, quyosh atrofida aylanuvchi sayyora ekanligiga amin bo`ldi. Bu haqda Qirollik Jamiyatiga bergen axborotida Gershel Yevropaning boshqa astronomlarining kuzatishlari natijasini ham ilova qilib o`tib, o`zi ochgan osmon jismi, xuddi Yer,



Mars va boshqa ma`lum sayyoralar singari, Quyosh atrofida aylanishi, ya`ni Quyosh tizimining yettinchi sayyorasi ekanligini bayon qildi. Qirol Georg III, buyuk astronomning ulkan kashfiyotini munosib mukofotladi va unga umrining oxirigacha har oyda 200 funt-sterling nafaqa tayinladi. Bunga javoban Gershel, yangi ochilgan sayyorani qirol Georg III sharfiga, Georg III sayyorasi deb nomlash taklifini ilgari surdi. Boshqa bir astronom, Fransiyalik J. Laland bu sayyorani, uni ochgan inson sharafiga Gershel sayyorasi deb nomlashni ham taklif etdi. Uran nomini esa olmon astronomi Iogann Bode taklif qilgan bo`lib, u qadimgi an`ana – sayyoralar nomini afsonaviy ma`budlar nomi bilan bog`lab atashni davom ettirishni ilgari surdi. Uran qadimgi yunon afsonalaridagi osmon ma`budi bo`lib, Bode o`rtaga tashlagan mantiqqa ko`ra, Saturn -Yupiterning otasi bo`lsa, demak, yangi sayyorani Saturnning otasi nomi bilan bog`lash kerak edi. Bu sayyoraning nomi Uran sifatida rasman qayd etilishi 1823 yildan boshlangan bo`lsada, biroq, «Georg» va «Gershel» nomlari amalda yana 70-yilgacha qo`llanilib keldi. Sayyorani Uran deb nomlanishini oxir oqibat, «Qirollik Dengiz Solnomasi» nashriyotining 1850 yildagi nashrlarida aynan Uran nomi bilan atalishi orqali rasmiy hujjatlarda mustahkamlandi. Nomlanishiga ko`ra Uran, sayyorlar ichidagi, nomi qadimgi Rim afsonalaridan emas, balki yunon afsonalaridan kelib chiqqan yagona sayyoradir. Uran -gigant sayyoralar turkumiga mansub. Uning diametri Yernikidan 4 barobar katta: 53000 km. Quyoshdan uzoqligi 19.1914 a.b. (2.8 milliard km). Uran sirtiga oid biror bir ma`lumot olish juda mushkul. Sababi teleskop kuzatuv maydoniga nisbatan sayyoraning kuzatuv burchak o`lchamlari juda kichik. Shu tufayli Uranning tadqiq qilish ishlari murakkab bo`lib, shu jumladan, aylanish qonuniyatlari ham to`la o`rganilgan emas. Bu sayyora yerga nisbatan 14,5 marta og`irroq. Uning ko`rinadigan yulduz kattaligi +5,6m dan +5,9m gacha o`zgarib turadi. Bu qurollanmagan ko`z uchun chegaraviy qiymat (taxminan +6m) ga yaqin bo`lib, ochiq tungi osmonda ham uni teleskopsiz ko`rish o`ta mushkul. Uranni qurollanmagan ko`z bilan ko`rish faqat buyuk qarama-qarshilik vaqtlaridagina imkonli bo`ladi. Uranning ekvator tekisligining orbita

tekisligiga nisbatan og`ishi $97,86^{\circ}$, ya`ni sayyora retrograd ravishda - bosha barcha sayyoralardan farqli ravishda o`z o`qi atrofida sharqdan g`arbgaga emas, balki, shimoldan janubga qarab aylanadi. Bunday g`ayrioddiy ekvator qiyaligi yoritilishning ham g`aroyib sharoitlarini keltirib chiqaradi. Ma`lum mavsumlarda Quyosh nurlari qutblarga tik tushadi. Qutb tuni va qutb kuni esa, sayyoraning ekvator hududidan tashqari deyarli barcha qismini butunlay qoplaydi. Uran Quyosh atrofida 84 yilda bir marta to`liq aylanib chiqadi. Undagi qutb kuni va tuni roppa-rosa 42 yildan davom etadi. Faqat ekvator tekisligidagina Quyosh Uranning o`z o`qi atrofida aylanishiga mutanosib davriy ravishda chiqib, botib turadi. Uranning Quyosh zenitda turgan qismlarida ham harorat -215°C (bu ko`rinadigan Uran bulutlarining harorati) ni tashkil qiladi. Uran qutblaridan biriga 42 yil Quyosh nurlari tik tushishini inobatga olsak, Uranning qutblari, ekvatoridan ko`ra ko`proq energiya qabul qilishi kerak bo`ladi, biroq, amaliy kuzatuvlarda uranning ekvatorial hududlari baribir qutblaridan ko`ra iliqroq ekan. Bunday hodisani keltirib chiqish sababi hozircha ma`lum emas. Sayyora atmosferasida, bilvosita belgilarga ko`ra, molekulyar vodorod ($83\pm3\%$) va geliy ($15\pm3\%$) juda ko`p miqdorni tashkil qiladi. Shuningdek Uran atmosferasida metan taxminan 2.3% bo`lib, undan tashqari, ammiak, suv bug`lari va oltingugurt -vodorod birikmalarining o`ta kam miqdorlari aniqlangan. Uran atmosferasining yuqori qatlamlarida metilatsetilen ($\text{CH}_3\text{C}_2\text{H}$), diatsitilen ($\text{C}_2\text{HC}_2\text{H}$) hamda etan (C_2H_6) qoldiqlari mavjud ekan. Uranning o`rtacha zichligi, Saturn va Yupiternikidan kattaroq: 1.58 gr/sm^3 . Olimlar buning sababi sifatida Uran yadrosida o`g`ir elementlar markazlashganligidan degan taxminni ilgari surmoqdalar. Uranning yana bir ajoyib xususiyatlaridan biri, 1977 yilda kashf etilgan halqalaridir. Bu sayyoraning halqalari mavjud ekanligi Uilyam Gershelning 1789 yilga oid qaydlarida ham mavjud edi, biroq, keyingi avlod astronomlaridan birortasi qaytib Uran halqalarini ko`rishmagan. Lekin, 1977 yilning 10-mart kuni AQSHlik bir guruh astronomlar, Uran atmosferasini o`rganish maqsadida, uni SAO 158687 yulduzi qoplab oladigan vaqtini poylash asnosida tasodifan kashf etishgan.

O'shanda Uranning 9 ta halqasi borligi aniqlangan edi. Voyager-2 ning Uranning yaqinlashgan vaqtida yerga yuborgan fotosuratlari orqali, Uranning yana ikkita halqasi ochilgan bo`lib, 2005 yilda esa, «Xabbl» fazoviy teleskopi yordamida yana 2 ta avval ma`lum bo`lmagan halqalar topildi. Shunday qilib, hozirgacha bu gigant sayyorani o`rab turgan 13 ta halqalar tizimi fanga ma`lum. Uran halqalari qoramtil jismlar tashkil qiladi va u Saturn halqalaridan farqli ravishda, juda ham ingichka. Uran halqasi faqat sayyora ortidagi yulduzlar ravshanligini kuchli so`ndirilganda ko`rish mumkin. Chunki uning tashkil qiluvchi jismlar yorug`likni o`zida deyarli akslantirmaydi. Halqa sayyora sirtidan 1.6 -1.85 Uran radiusi masofasida harakatlanadi. Uran o`ziga xos bo`lgan magnitosferaga ega. Sayyoraga Voyager-2 yetib borguniga qadar, uning magnitosferasi haqida hech qanday ma`lumotlar mavjud emas edi. 1986 yilda olingan ma`lumotlar asosida olib borilgan tahlillarga ko`ra, Uran magnitosferasi uning aylanish o`qiga nisbatan 59° burchak ostida joylashgan ekan. Amalda magnit dipoli sayyora markazidan janubiy qutb tomonga $1/3$ Uran radiusi masofasida joylashgan. Bunday g`ayrioddiy geometriyaga ko`ra, sayyora magnit maydonining kuchlanganligi o`ta asimmetrik bo`lib, u janubiy yarim sharda 0.1 Gauss, shimolda esa 1.1 Gaussga tenglashadi. Uran butun quyosh tizimidagi sayyoralar ichida eng sovuq iqlimga ega. U hatto o`zidan keyingi Neptun va Plutondan ham sovuqroq. Bunday iqlim sharoitining sababi sifatida, sayyoraning nisbatan kam ichki issiqlikka ega ekanligi ko`rsatiladi. Uran atmosferasi tropopauzasida 49 K (-224°C) harorat qayd etilgan va bu barcha sayyoralar ichida rekord past ko`rsatkichdir. Uran ham Saturn va Yupiter singari ko`p sonli tabiiy yo`ldoshlar tizimiga ega. Hozirgacha Uranning 27 ta tabiiy yo`ldoshi aniqlangan. An`anaga ko`ra, Uran yo`ldoshlariga Shekspir va Aleksandr Pouj asarlari qahramonlari nomi berish qabul qilingan. Ulardan dastlabki ikkitasi – Titaniya va Oberonni Uran kashfiyotchisining o`zi - Uilyam Gershel 11-yanvar, 1787 yilda ochgan edi. Yana ikkitasi -Ariel va Umbrielni 1851 yilda Uilyam Lassel kashf etgan. Bu vaqtda Uran yo`ldoshlariga hali nom berilmagan edi. Ular sayyoradan uzoqlashish tartibida rim raqamlari bilan Uran I ÷ Uran

IV tarzida ifodalanar edi. Lassel kashfiyotlaridan keyin, 1852 yili Uilyam Gershelning og`li Jon Gershel o`sha vaqtida ma`lum bo`lgan Uranning 4-ta tabiiy yo`ldoshga nom berdi. Mirandani esa 1948 yilda Jerard Koyper kashf etgan bo`lib, qolgan yo`ldoshlarni 1985 yildan keyin, unga Voyager-2 yaqinlashgandan so`ng va yerdagi kuchli teleskoplardan foydalanilib ochilgan. Masalan 1986 yilda Voyager-2 yuborgan tasvirlar asosida Uranning 10 ta yangi tabiiy yo`ldoshlari aniqlandi. 1997 yilda esa sayyoradan ancha olisda harakatlanadigan yana 9 ta tabiiy yo`ldoshlari topildi. 2001 yilda, Voyager-2 yuborgan fotosuratlarni qayta tahlil qilish jarayonida, ilgari nazardan chetda qolgan yana bir tabiiy yo`ldosh – Perdita kashf etildi. Xabbl teleskopi yordamida esa 2003 yili yana ikkita kichik yo`ldosh – Kupidon va Mab aniqlangan bo`lsa, 2003 yilning o`zida, Uranning hozirgacha ma`lum tabiiy yo`ldoshlaridan oxirgisi – Margarita qayd etildi.

Uran ham Saturn va Jupiter singari ko`p sonli tabiiy yo`ldoshlar tizimiga ega. Hozirgacha Uranning 27 ta tabiiy yo`ldoshi aniqlangan. Uran yo`ldoshlariga Shekspir va Aleksandr Pouj asarlari qahramonlari nomi berish qabul qilingan. Ulardan dastlabki ikkitasi – Titaniya va Oberonni Uran kashfiyotchisining o`zi – Uilyam Gershel 11-yanvar, 1787 yilda ochgan edi. Yana ikkitasi – Ariel va Umbrielni 1851 yilda Uilyam Lassel kashf etgan. Bu vaqtida Uran yo`ldoshlariga hali nom berilmagan edi. Ular sayyoradan uzoqlashish tartibida rim raqamlari bilan Uran I ÷ Uran IV tarzida ifodalanar edi. Lassel kashfiyotlaridan keyin, 1852 yili Uilyam Gershelning og`li Jon Gershel o`sha vaqtida ma`lum bo`lgan Uranning 4-ta tabiiy yo`ldoshga nom berdi. Mirandani esa 1948 yilda Jerard Koyper kashf etgan bo`lib, qolgan yo`ldoshlarni 1985 yildan keyin, unga Voyager-2 yaqinlashgandan so`ng va yerdagi kuchli teleskoplardan foydalanilib ochilgan. Masalan 1986 yilda Voyager-2 yuborgan tasvirlar asosida Uranning 10 ta yangi tabiiy yo`ldoshlari aniqlandi. 1997 yilda esa sayyoradan ancha olisda harakatlanadigan yana 9 ta tabiiy yo`ldoshlari topildi. 2001 yilda, Voyager-2 yuborgan fotosuratlarni qayta tahlil qilish jarayonida, ilgari nazardan chetda qolgan yana bir tabiiy yo`ldosh – Perdita kashf etildi. Xabbl teleskopi yordamida esa 2003 yili yana ikkita kichik


yo`ldosh – Kupidon va Mab aniqlangan bo`lsa, 2003 yilning o`zida, Uranning hozirgacha ma`lum tabiiy yo`ldoshlaridan oxirgisi – Margarita qayd etildi.

Uranning 27 ta tabiiy yo`ldoshi aniqlangan

Uran yo`ldoshlari

Nº	Tabiiy yo`ldosh nomi	Sayyora sirtidan o`rtacha uzoqligi (ming km.)	Aylanish davri (kun)	Diamteri yoki o`lchamlari (km)	Ochilgan yili	Kashf etgan olim
1	Ariel	192	2.52	1157±1	1851	U.Lassell
2	Umbriel	267	4.14	1169±5	1851	U.Lassell
3	Titaniya	438	8.71	1577±3	1787	U.Gershell
4	Oberon	586	13.46	1522±5	1787	U.Gershell
5	Miranda	130	1.41	471.6	1948	J. Koyeper
6	Kordeliya	49.75	0.33	42±6	1986	Voyadjer-2
7	Ofeliya	53.77	0.38	46±8	1986	Voyadjer-2
8	Bianka	59.16	0.44	54±4	1986	Voyadjer-2
9	Kressida	61.77	0.46	82±4	1986	Voyadjer-2
10	Dezdemona	62.65	0.47	68±8	1986	Voyadjer-2
11	Julyetta	64.63	0.49	106±8	1986	Voyadjer-2
12	Portsiya	66.10	0.51	140±8	1986	Voyadjer-2
13	Rozalinda	69.93	0.56	72±12	1986	Voyadjer-2
14	Belinda	75.33	0.62	90±16	1986	Voyadjer-2
15	Pek	86	0.76	162±4	1985	Voyadjer-2
16	Kupidon	74.8	0.618	~18	2003	Xabbl
17	Perdita	76.4	0.63	30±6	1986/2001	Voyadjer-2
18	Mab	97.7	0.92	~25	2003	Xabbl
19	Fransisko	427.6	267.12**	~12	2001	
20	Kaliban	723.1	579.39**	~98	1997	
21	Stefano	800.4	677.48**	~20	1999	
22	Trinkulo	850.4	748.83**	~10	2001	

23	Sikoraksa	1217.9	1285.62**	~190	1997	
24	Margarita	1434.5	1654.32	~11	2003	
25	Prospero	1625.6	1962.95**	~30	1999	
26	Setebos	1741.8	2196.35**	~30	1999	
27	Ferdinand	2090.1	2805.51**	~12	2001	



5.11. Neptun

Neptun-Quyoshdan uzoqligi bo`yicha sakkizinchı, massasi bo`yicha uchinchi (17.2 Yer massasi), diametri bo`yicha esa to`rtinchi (3.9 Yer diametri) o`rinda turuvchi sayyora. 2006 yildan e`tiboran, Quyosh tizimining eng olis sayyorasi hisoblanmoqda. U noodatiy tarzda kashf etilgan. Galileyning qo`lyozmalardagi tasvirlarga qaraganda, Neptunni birinchi bo`lib aynan Galileo Galiley kuzatgan bo`lishi ehtimoli katta. Lekin u Neptunni sayyora ekanligini xayoliga ham keltirmagan, aksincha uni, Yupiter ortidagi qo`zg`almas yulduzlardan biri deb o`ylagan. Galiley kuzatishlar olib borgan 1612 yilning dekabrida, Neptun orqaga tisarilgandek harakat boshlagan, bunday harakat,

Yerning o`z orbital harakati natijasida tashqi sayyoralarni quvib o`tgani kuzatiladi. Lekin, uning harakati Galileyning kuchsiz teleskopi sezalishi uchun yetarli darajada bo`lmagan. Shu tufayli Galiley Neptunni ochgan ilk olim deb hisoblanmaydi. Oradan 169 yil vaqt o`tib Uilyam Gershel Uran ayyorasini kashf qildi. 1821 yilda esa Aleksis Buvar Uranning orbital harakati jadvallarini ishlab chiqdi va chop ettirdi. Buvar jadvallari Yevropa astronomlari orasida keng tarqaldi. Astronomik kuzatuvlarda ulardan foydalanish ko`lami ortdi. Biroq, ko`p o`tmay Buvar jadvallariga nisbatan shubha paydo bo`la boshladи. Uran, Buvar hisoblagan trayektoriyadan og`ib, anomal harakat qilayotganligi aniqlandi. Xususan ingliz astronomi T.Xassi o`zining kuzatishlarida Uranning belgilangan orbitadan og`ayotganini aniq hisoblab chiqardi. Xassi 1834 yilda Parijda, Buvar rasadxonasida mehmon bo`ldi va Uran orbitasidagi anomaliyalarni muhokama qildi. Buvar Xassining mazkur anomaliyalarni Urandan ham keyinroqda joylashgan sakkizinchи sayyoraning gravitatsion ta`siri natijasi bo`lsa kerak degan farazini qabul qildi va jadvallarni, anomal o`zgarishlar asosida muvofiqlashtirib chiqdi. Bu vaqtarda Neptunni ko`ra oladigan kuchli teleskoplar mavjud bo`lmagan. Shuning uchun Neptun harakati qonuniyatlarini va uning fizik parametrlarini Uranga qilayotgan gravitatsion ta`siri qiymatlaridan kelib chiqib, toza matematik yo`l bilan hisob-kitob qilish zarur edi. Bunday favqulodda mushkul matematik masalani Buvar va Xassi ilgari surgan sakkizinchи sayyora haqidagi g`oya paydo bo`lgach, oradan 9 yil o`tib, 1843 yilda ingliz astronomi Jon Kuch Adams, va farang astronomi Urban Leverye bir-biridan mustaqil ravishda hal qilishdi. Ular Uran orbitasi anomaliyalari asosida sakkizinchи sayyoraning fazodagi taxminiy joylashuv nuqtasini sof matematik usulda hisoblab chiqarishdi. Leveryening hisob-kitoblariga tayangan holda, Berlin rasadxonasi mutaxassisи I.Galle va uning talaba-shogirdi Genrix d`Arre tomonidan 1846 yilning 23 sentyabr kuni Neptun sayyorasini avvaldan taxmin qilingan joyda kuzatishga muvaffaq bo`ldi. Ular taxminan 1 soatcha davom etgan qidiruvdan so`ng, Leverye hisoblaridan atiga 1° koordinata farqi bilan, koinotda Neptunni aniq ko`rishga

muvaffaq bo`lishdi. Neptun kashf etilgan dastlabki davrlarda uni shuncha «Urandan keyingi sayyora», yoki, «Leverye sayyorasi» deb atashgan. Gallening o`zi «Yanus» nomini ilgari surgan, Angliyada esa, «Okean» nomini taklif etishgan. Bu o`ziga xos olamshumul kashfiyot edi. Sababi, Neptunning toza matematik usulda kashf etilishi, birinchidan Butun olam tortishish qonunining o`ta aniq va to`g`ri ifodalanganligini isbotlasa, ikkinchidan, qadimdan saqlanib kelgan yetti sayyora haqidagi tushunchaga barham berdi. Qolaversa, Neptun inson aql zakovati mahsuli natijasida, jisman ko`rinishidan ham avval, fazoviy harakati qonuniyatlarini kashf etilgan ilk osmon jismi edi. Neptunning Quyoshdan uzoqligi 30.1 astronomik birlik. Quyosh atrofidagi orbitasi bo`ylab aylanish davri 164 yil 288 kun. Shunday qilib, Neptun ochilganidan buyon faqat bir marotaba – 2011 yilning 12 iyul kunida Quyosh atrofini to`liq aylanib chiqdi, ya`ni Neptun yili to`ldi. Neptunning diametri 50200 km, o`rtacha zichligi esa, 2.3 gr/sm^3 . Bunday ko`rsatkichlariga ko`ra Neptun – gigant sayyoralar turkumiga mansub bo`lib, uning asosini vodorod va geliy elementlari tashkil qiladi. Hisoblashlarga ko`ra Neptun markazida og`ir yadro mavjud bo`lib, uning tarkibi, taxminan silikatlar hamda, og`ir metallardan iborat ekan. Neptun atmosferasining tarkibiga ko`ra, molekulyar vodorod va geliy asosiy ulushni egallaydi, shuningdek, kam miqdordagi metan mavjudligi aniqlangan. Neptun kosmik apparatlar obyektivida moviy rangda namoyon bo`ladi. Buning sababi asosan metan gazi hisoblanadi. Neptun atmosferasida butun Quyosh tizimidagi eng kuchli po`rtana va bo`ronlar yuz beradi. Ba`zi fikrlarga ko`ra ularning tezligi 2100 km/soatgacha yetar ekan. 1989 yilda Voyager-2 kosmik apparati tomonidan Neptun atmosferasida oq dog`-Yupiterning qizil dog`iga o`xshash hodisani qayd etdi. Bu yuqoridagi Neptun bo`ronlari haqidagi fikrni tasdig`i sifatida qarala boshladi. Neptunning atmosfera qatlamlaridagi harorat - 220°C ni tashkil qiladi. Biroq uning yadrosida esa 5400°K gacha issiqlik bo`lishi mumkin ekan. Neptunni kuzatishlardagi aniqlangan ajablanarli hodisalardan biri, uning Quyoshdan oladigan issiqlik miqdoriga nisbatan, o`zi ko`proq issiqlik miqdori chiqarishidir. Buni olimlar Neptun yadrosida termoyadro reaksiyalari

borsa kerak degan faraz bilan izohlashgan. O`z o`qiga nisbatan og`ish burcha Yer va Marsnikiga yaqin, ya`ni $28,32^{\circ}$ bo`lganligidan, Neptunda fasllar almashinuvi jarayoni yuz beradi. Neptun fasllari har 40 yilda bir almashadi. Neptun fasllari almashinuvi uning albedo qiymatiga ham ta`sir ko`rsatadi. Urandan farqli ravishda Neptun kuchli ichki issiqlik manbaiga ega. U o`zi quyoshdan oladigan energiyaga nisbatan 161% ko`p miqdorda ichki issiqlik ishlab chiqaradi. Buning sababi sifatida olimlar, sayyora yadrosining kuchli radiogen qizishini keltirishmoqda. Neptunda ham ko`p sonli tabiiy yo`ldoshlar tizimi, hamda, juda ingichka va xira halqalar mavjudligi, Voyager-2 tomonidan olingan tasvirlar orqali aniqlandi. Neptun halqasi asosan silikatlar bilan qoplangan uglerodli materiallardan tashkil topgan, muzlagan mayda jismlardan iborat. Hozirgacha Neptunning 5 ta halqasi aniqlangan. Tabiiy yo`ldoshlarning eng kattasi -Tritonni, Neptunning o`zi kashf etilishidan 17 kun o`tib, Uilyam Lassel ochgan. «Triton» nomini Kamil Flammarion 1880 yilda fanga tavsiya etgan edi. Biroq, Neptunning 2-yo`ldoshi Nerida ochilguniga qadar Triton nomi rasmiy qo`llanilmay, u faqat «Neptun yo`ldoshi» sifatida yuritilgan. Triton, Quyosh tizimidagi tabiiy yo`ldoshlar ichida o`z atmosferasiga ega bo`lgan uchta tabiiy yo`ldoshdan biridir (Io va Titan bilan birgalikda). U ham teskari yo`nalishda va spiralsimon orbita bo`ylab aylanadi. Olimlarning fikricha aslida Triton Neptunning haqiqiy tabiiy yo`ldoshi bo`lmay, balki uzoq o`tmishda Neptun tomonidan «tutib olingan» bo`lishi ham mumkin ekan. Neptunning ikkinchi yo`ldoshi Nereida 1949 yilda golland olimi Jerard Koyper tomonidan kashf etilgan. Keyingi yo`ldoshlarni esa 1989 yilda Neptunga Voyager-2 ning tashrifidan so`ng aniqlandi. 2002-2003 yillar davomida Neptunning yana 5 ta yangi tabiiy yo`ldoshi qayd etildi. Sakkizinch sayyoraning hozircha oxirgi-14 tabiiy yo`ldoshi, «Xabbl» teleskopidan 2004-2009 yillar davomida olingan fotosuratlari asosida, 2013 yilda aniqlangan bo`lib, unga hali nom berilganicha yo`q (vaqtinchalik nomi - S/2004 N 1). Neptun quyosh tizimidagi eng kam o`rganilgan sayyoralardan biridir. Unga hozircha


faqat bir marta –Voyager-2 kosmik apparatigina yetib borgan. Yanada yangi bat afsil ma`lumotlarni balki keyingi avlod fazoviy apparatlari yetkazishar.

“Xabbl” teleskopi Neptun sayyorasining avval noma`lum bo`lgan yangi yo`ldoshini aniqladi. NASA saytida xabar berilishicha, uning diametri 12 milni (19 kilometr) tashkil etadi. Yo`ldoshga vaqtinchalik S/2004 N 1 belgisi berildi. U Neptunning 14- va eng kichik yo`ldoshidir.S/2004 N 1 sayyoradan 65400 mil (105251 kilometr) uzoqlikda joylashgan bo`lib, uning orbitasi (harakat yo`li) boshqa ikki yo`ldosh – Larissa va Protey orbitalari oralig`i bo`ylab joylashgan. Yo`ldosh Neptunni 23 soat ichida to`liq aylanib chiqadi. 1989-yilda Neptunga uchgan va uning yo`ldoshlar va halqalari tizimini tadqiq qilgan “Voyager” kosmik qurilmasi S/2004 N 1 ni payqamagan. Uni 2013-yilning 1-iyul kuni SETI Kaliforniya instituti xodimi Mark Shouolter aniqlagan. Olim Neptun halqalari segmentlarini o`rganayotgan paytda “Xabbl” tomonidan olingan suratlarda noma`lum dog`ni payqab qolgan.

2017 yilda rejorashtirilgan sayyoralarining bir-bnirlari bilan 22 ta yaqinlashishidan eng yaqinlashish(5 burchak minutdan kichik) 3 ta hodisa kuzatiladi.(1yanvar-Mars va Neptun, 28 aprelda-Merkuriy va Uran, 16 sentyabrda-Merkuriy va Mars). Quyidagi sayyoralar orasidagi burchak masofa 1 gradusdan kichik bo`ladi:12 yanvarda Venera va Neptun, 26 fevralda Mars va Uran, 28 Iyunda Merkuriy va Mars,5 oktyabrda Venera va Mars, 18 oktyabrda Merkuriy va Yupiter, hamda 13 noyabrda Venera va Yupiter.

Yana 2017 yilda yuz berishi rejorashtirilgan Quyosh tizimi katta sayyoralarining Oy bilan to`silish 18 ta hodisasi ichida: Merkuriy -2 marta(25 iyul va 19 nsentyabr), Venera- 1 marta(18 sentyabr), Mars- 2 marta (3 Yanvar va 18 sentyabrda), Yupiter,Saturn va Uran bu yilni Oy bilan to`silmasdan qarshi oladi, ammo Neptun 13 marta Oy bilan to`siladi(!),undan ikkitasi oktyabr oyida yuz beradi. Yupiterning keyingi to`silish2019 yil 28 oktyabrda boshlanadi, Saturnnniki

esa- 2018 yil 9 dekabrda yuz beradi. Uran sayyorasining to`silishlar seriyasi 201 yilda tugagan edi, endi esa 2022 yil 7 fevralgacha kutish kerak bo`ladi.



Yulduzlarni Oy bilan to`silishlaridan Altebaran(Buzoqning alfasi) ning to`silish seriyalari 2015 yil 29 yanvardan boshlangan va 3 sentyabr 2018 yilgacha davom etadi. 2017 yilda Al`debaran 14 marta to`siladi(aprel va dekabrdan ikki martadan). Yana birta ravshan yulduz-Regul(Arslonning alfasi)ning boshlanga tyo`silishlari seriyasi 13 marta yuz beradi(may oyida ikki marta).

Yana birta qiziqarli hodisa haqida eslatib o`tamiz. 2017 yil 18 sentyabrda Oy bir kun davomida to`rtta ravshan yoritgich: Oy Venera, Regul(Arslonning alfasi), Mars va Merkuriyni to`sadi.


Vesta asteroid bu yili eng ravshan bo`ladi va uning ravshanligi 18 yanvar ro`baro turish davrida da 6,2m (qisqichbaqa turkumida) ga etadi.Yil oxirida Tsereraning(Arslon yulduz turkumida) ravshanligi 7,4mga yetadi.Irida asteroid 30 oktyabrda quyosh bilan ro`baro` turishga kirishib 6,9m(hamal turkumida) ravshanlikka erishadi. Boshqa asteroidlardan Metida, Irena, Geba va Evnomiya 9m ravshanlikka erishadilar.

Kometalardan o`rta va kichik teleskoplar uchun kuzatish mumkin bo`ladigani keying marta qaytayotgan ENKE, shuningdek [P/Honda-Mrkos-Pajdusakova \(45P\)](#), [Johnson \(C/2015 V2\)](#) va [P/Tuttle-Giacobini-Kresak \(41P\)](#) larning kutilayotgan_ravshanligi 10m ga teng. ENKE kometasi fevral oyida qurollanmagan ko`z bilan ham ko`rish imkonini beradi.

Meteor oqimlari orasida Liridlar, Orionidlar, Leonidlar va Geminidlarni kuzatish mumkin bo`ladi. Meteor oqimlari to`g`risidagi umumiy ma`lumotlarni Xalqaro Meteor Tashkiloti <http://www.imo.net> saytidan olish mumkin.

5.12. Sirli- Pluton.


Yaqin-yaqingacha biz Plutonga Quyosh sistemasining to`qqizinchi sayyorasi sifatida qarar edik. XXI asr boshlarida Pluton katta sayyoralar safidan chiqarib yuborildi. Nega bunday bo`ldi? Bu savolga javob berish uchun sayyoralarning ochilish tarixi haqida to`xtalsak. XVIII asr oxirlarida astronomlar Quyosh sistemasi Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Jupiter va Saturn kabi oltita sayyoradan iborat deb hisoblashar edi. 1781 yilda ingliz olimi Vil`yam Gershel` ettinchi sayyora – Uranni teleskop yordamida topdi. 1820 yil parijlik astronom A. Buvar Jupiter, Saturn va Uranning koordinatalari o`zgarishi jadvalini o`ta aniqlikda hisoblab chiqdi. Biroq oradan o`n yillar o`tgach, Uran oldindan hisoblangan o`z o`rnidan anchagina ilgarilab ketdi. Astronomlar Uran harakatidagi bu chetlashish, uning orbitasidan tashqaridagi boshqa bir sayyoraning ta`siri tufayli, ro`y bergen degan qarorga kelishdi. Frantsuz matematigi U. Lever`e murakkab matematik masalani hal etish orqali sayyoraning o`rnini aniqlab berdi. 1846 yil 23 sentyabrda Berlin observatoriyasining astronomi, professor Galle sayyorani Lever`e hisoblab qo`ygan joydan atigi bir gradus naridan topdi. Sayyoraga dengiz ma`budi - Neptun nomi berildi.



Quyosh tizimi katta sayyoralarini va kichik jismlarining massa va o`lchamlari: massalar Er massasi birliklarida, orbita o`lchamlari astronomik birliklarda berilgan. Kashf etilgan mitti sayyoralar o`z orbita o`lchamlariga ko`ra katta sayyoralardan 2,5 marta, massa bo`yicha 300 marta kichik, shu tufayli ular “normal” sayyoralar bilan “bellasha” olmaydi. Grafikdagi keng belbog`ning mavjudligi sayyora o`z orbitasini begona jismlardan tozalay olishini ko`rsatadi.

1880 yilda ingliz astronomi Forbs Neptundan tashqari ham sayyora bo`lishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Shundan so`ng astronomlar bu sayyorani ham qidirishga tushishdi. XX asr boshiga kelib noma`lum sayyorani qidirish bilan astronom Lovell` qiziqdi. Uning o`zi tashkil etgan observatoriyasidagi urinishlari besamar ketdi. Nihoyat, uzoq davom etgan mashaqqatli kuzatishlar natijasida sayyora 1930 yilda Klayd Tombo tomonidan ochildi. Kambag`al ijrarachi-fermer oilasida dunyoga kelgan Tombo 12 yoshida ilk bor teleskopda Oyni kuzatib astronomiyaga qiziqib qoladi. Maktabni tugatayotgan sinfdoshlari maktab xotira kitobiga Tombo haqda “U yangi dunyoni ochadi”, deb yozib qoldirishgandi. Oilasidagi moddiy qiyinchiliklar tufayli Tombo o`qishni davom ettira olmagan bo`lsada, uning astronomiyaga bo`lgan qiziqishi so`nmadi. O`zi mustaqil ravishda shishaga ishlov


berib, ko`zgusining diametri 9 dyum (taxminan 23 sm) li teleskop yasadi. ushbu teleskop yordamida olingan YUpiter yo`ldoshlari va Mars yuzasining tasvirlarini Lovell` observatoriyasiga yuborib turdi. Bu tasvirlar mutaxassislarda qiziqish uyg`otdi. 1928 yil oxirlarida Lovell` observatoriyasining direktori Slayfer havaskor astronom Tomboni ishga taklif qiladi. U laborant-fotograf lavozimiga ishga olinadi. Noma`lum sayyorani qidirish uzoq davom etgan mashaqqatli mehnatni talab qildi. Tombo sutkasiga 18 soatlab ishlar edi. Tunlari osmonni rasmga olib, kunduzlari olingan fotoplastinkalarni blik-komparator deb atalmish uskunada sinchiklab tekshirardi. U noma`lum sayyorani qidirish davomida 100 minglab yulduzlar tasvirlarini bir-biri bilan solishtirib, yangi kometa va yuzlab asteroidlarni kashf etdi. 1930 yilning 18 fevralida, u fotoplastinkalarni tekshira turib, egizaklar yulduz turkumida qo`zg`almas yulduzlar orasida kichik bir xira nuqtaning harakatini sezib qoldi: bu Pluton edi. Hozirgi zamon hisob-kitoblariga ko`ra, Plutonning diametri 2324 kilometr. Sayyora Quyosh atrofini 249 yilda bir marta aylanib chiqadi. Quyoshga eng yaqin kelish masofasi - 29,65 a.b., eng uzoqlashish masofasi - 49,28 a.b. Pluton 1979 yilda Quyoshga nisbatan minimal masofadan o`tib, Neptun orbitasidan ham ichkariga kirib keldi va 1999 yilda bu orbitadan tashqariga chiqib ketdi. Uning massasi 0,0022 Er massasiga teng, zichligi - 2 g/sm³. Uning sirtidagi o`rtacha harorat minus 230 0S ga teng. Pluton sayyorasi kashf etilganidan so`ng oltmis yildan ortiqroq vaqt davomida Quyosh sistemasida boshqa katta sayyora topilmadi. Olimlar Plutonni 1978 yilgacha, ya`ni uning yo`ldoshi kashf etilguniga qadar naqadar kichik ekanligini bilishmagan edi. Xaron – Plutonning besh yo`ldoshidan eng yirigi, u uncha katta bo`lmay, diametri atigi 1212 kilometr. Lekin Pluton bilan solishtirilganda ulkandek tuyuladi. Xaronni biz Pluton yo`ldoshi deb hisoblasak-da, aslida u qo`shaloq ob`ektning biridir. Bu ob`ektning atrofida 4 ta yo`ldosh harakatlanadi. Pluton erosti dunyosining ma`budi sharafiga nomlangan va u etmish yildan ortiq maktablarda to`qqizinchı sayyora deb o`qitilgan. Yigirmanchi asr oxirigacha Pluton haqida bilganlarimiz ana shulardan iborat edi.



So`nggi tadqiqotlar Pluton va Xaronning qo`shaloq sayyora tizimi ekanligini ko`rsatdi. Bu tizim atrofida 4 ta yo`ldosh harakatlanadi.

Pluton etmish olti yil davomida to`qqizinchi katta sayyora deb hisoblab kelindi. Osmondag'i ushbu mitti nuqtaning o`zi aslida qanday? Hozir biz yigirma yil avvalgiga qaraganda Pluton haqida ko`p narsa bilamiz. XX asr oxiriga kelib katta sayyoralar chegarasidan tashqarida ham belbog`i topildi. Bu belboqqa «Koyper belbog`i» deb nom berilgan. Belbog`ning mavjudligi haqida ilk bor 1949 yilda ingliz astronomi Kennet ejvort va 1951 yilda amerikalik astronom Jerard Koyper bashorat qilishgan edi. Ularning fikricha, bu belbog` gigant sayyoralardan 35-50 a.b. uzoqlikda joylashgan bo`lib, u asteroidlar va kometalardan iborat. 1992 yildan boshlab shu belbog`da yangi ob`ektlar ochila boshladi. 2000 yilga kelib mazkur ob`ektlarining soni 300 ta ga yaqinlashdi. Astronomlarda Pluton yoki undan ham kattaroq ob`ektlar bormikin, degan savol tug`ildi. Etmish yillar avval Tombo Plutoni o`rganganidek, amerikalik astronom Mark Broun ham yanada kattaroq o`ljani qo`lga kiritish ilinjida osmonda ov qildi. Nihoyat, 2003 yilda, xuddi Tombo Plutoni ochganidek, Mark Broun ham Neptun ortidagi dastlabki yangi ob`ektni kashf etdi. Avvalida norasmiy ravishda "Zena" deb atalgan, tartib raqami 2003 UB313 bo`lgan ushbu ob`ektga Broun va uning komandasasi qadimgi yunon mifologiyasidagi raqobat ma`budi erida nomini berishdi. Xabbl Kosmik

teleskopida o`tkazilgan kuzatuvlar eridaning diametri Plutonnikidan kattaroq 2400 km ekanini ko`rsatdi. erida Plutondan uch marta og`irroq va unga qaraganda Quyoshdan uch marta uzoqda joylashgan ekan. Pluton yolg`iz emas edi, lekin endi uni eridaning parametrlari «bosib» qo`ydi. Bundan tashqari, erida qatorida ochilgan ob`ektlardan 2009 FY9, 2003 L61, Sedna, Kvavar kabi osmon jismlari ham kattaligi jihatdan Plutondan qolishmdi. Pluton o`z massasi va orbital xususiyatlariga ko`ra o`lchami bo`yicha ulardan 2,5 marta, massa bo`yicha 300 marta ortiq va “demarkatsiya” belbog`i bilan ajralib turadigan “normal” sayyoralar bilan “bellasha” olmas edi va uning sayyora maqomida qolishi yanada kuchli shubha ostida qola boshladи. Ochilayotgan osmon jismlarining bari sayyoralar singari Quyosh atrofida to`g`ri yo`nalishda, uzunchoq elliptik orbita bo`ylab harakatlanadi. Ularni asteroid yoki kometa deb atash juda qiyin, chunki yangi ochilayotgan jismlarning diametri ancha katta— 100-800 km ni tashkil qiladi. So`nggi oxirgi tadqiqotlar natijasiga ko`ra, bu belbog`da diametri 100 km dan ortiq bo`lgan 70 000 dan ziyod ob`ekt bo`lishi mumkin. Dunyo astronomlari orasida bu ob`ektlar ham sayyoralar safiga qo`shiladimi, degan savol paydo bo`ldi.



Plutonningo`z o`qi atrofida aylanishi davomida olingan tasvirlar.

Xalqaro Astronomiya Ittifoqi (XAI) bu savolga javob izlash maqsadi garvardlik professor Ouen Jingerix boshchiligidan maxsus ishchi guruhini tuzdi. Tarkibiga astronomlar, tarixchilar va yozuvchilar kirgan ishchi guruh ikki yil davomida izlanish olib borib, quyidagi taklif kiritdi. Sayyoralar soni 12 taga etkazilib, ular ikki guruhga bo`linishi lozim. «Klassik» sayyoralar deb atalmish birinchi guruhga Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun va eng katta asteroid TSerera kiradi. «Plutoniylar» deb ataluvchi ikkinchi guruhga Platon, erida neptunorti ob`ektlari kirishi kerak. Lekin XAI Komissiyasi boshqacha taklifni o`rtaga tashladi. 2006 yil 24 avgustda Xalqaro Astronomik Jamiyatning Pragada 2500 dan ortiq astronom ishtrokida o`tgan XVI Bosh Assambleyasining oxirgi ish kunida Quyosh sistemasi jismlarining yangi maqomi bo`yicha XAI Komissiyasi taklifi uchun ovoz berildi. Ovoz berish natijalariga ko`ra endilikda osmon jismlari quyidagicha ta`riflanadi:

1. Sayyora - Quyosh atrofida aylanuvchi osmon jismi. SHarsimon shaklda bo`lishi kerak yoki bu shaklni egallashi uchun etarlicha katta va massiv bo`lishi, hamda o`z orbitasi yaqinida o`lchami unikiga yaqin jism bo`lmasligi kerak. Sayyoralar soni 8 ta: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran va Neptun. Bu guruhga «klassik sayyoralar» nomi berildi.

2. Mitti sayyora - Quyosh atrofida aylanuvchi osmon jismi bo`lib, orbitasi yaqinida o`lchami unikiga o`xshash jism bo`lishi mumkin. Mitti sayyoralar Plutonga o`xshash bo`lib, ularning eng yirigi eridadir. Platon, Xaron, TSerera va Sedna ham ushbu oila vakillari deb hisoblandi. Mitti sayyoralarga neptunorti ob`ektlari nomi berilgan.

3. Quyosh sistemasining boshqa ob`ektlari - Quyosh atrofida aylanuvchi barcha jismlar. Ular «Quyosh sistemasining kichik jismlari» deb ataladi. Hozircha bularga Mars va Yupiter sayyoralari oralig`ida harakatlanuvchi, soni 600 mingdan oshib ketgan asteroidlar, kometalar va neptunorti ob`ektlaridan boshqa osmon jismlari kiradi. Bular orasida 2009 yilda O`zbekistonda ochilgan “Samarqand” asteroidi ham bor.



Pluton endi katta sayyoralar safidan chiqarildi! Inson asrlar davomida ko`kka intilib yashab, o`zining Koinot haqidagi bilimlarini oshira bordi. Sayyoralar, kometalar va asteroidlarni kashf qildi, Yer atrofidagi yaqin kosmosni zabt etdi, Oyga parvoz qildi. XX asr so`ngida yana bir buyuk kashfiyat qilindi: Quyosh tizimidan tashqarida, boshqa yulduzlar atrofida aylanuvchi sayyoralar – ekzosayyoralar topildi. Buyuk polyak olimi Nikolay Kopernik o`zining gelotsentrik tizimida Olam markazida Quyosh joylashgan, uning atrofida barcha sayyoralar, jumladan Er ham aylanadi, yulduzlar esa Quyoshdan bir hil masofada joylashgan, deb o`qtirgan edi. Jordano Bruno Kopernik ta`limotini rivojlantirib, yulduzlar Quyoshdan turli masofalarda joylashgan, ular ham Quyoshga o`xshab kuchli nur tarqatadi, ularning atrofida ham sayyoralar aylanadi, o`sha sayyoralarda ham odam yashashi mumkin, degan edi. Bruno bashorati to`g`ri bo`lib chiqdi. XX asr oxirlariga kelib o`nlab ekzosayyoralar topildi. Ushbu sayyoralar teleskopda ko`rinmasa-da, ularning mavjudligini sayyora ona yulduzining tebranuvchan harakatidan bilish mumkin edi. 2009 yilda ekzosayyoralarni kuzatishga mo`ljallangan "Kepler" kosmik teleskopi uchirildi. Uning yordamida 1000 dan ortiq ekzosayyora topildi. Ularni izlashda turli usullar qo`llanildi. Topilgan sayyoralarning aksariyati o`z ona yulduziga yaqin joylashgan yuqori haroratliligi gigant sayyoralar - "qaynoq YUpiterlar" bo`lib chiqdi. Va nihoyat, 2009 yil aprelida ekzosayyoralarning ilk kashfiyotchisi Mishel Mayor boshqargan xalqaro astronomlar guruhi Glize 581 yulduzidagi “e” sayyorani ochdi. Bu sayyora bizga ma`lum ekzosayyoralarning eng engili bo`lib chiqdi. Hisob-kitoblarga qaraganda, uning massasi Er massasidan ikki marta kichikroq ekan. Bundan tashqari, Glize 581 yulduz tizimidagi “d” sayyorasi ilk bor 2007 yilda topilgan bo`lib, orbitasi aniqlangandan keyin “yashash zonasi”ga tushdi. Buning ma`nosи shuki, bu sayyorada ochiq holdagi suv okeanlar mavjud bo`lishi mumkin. 2012 yil 22 fevralda Garvard – Smitson astrofizika markazi olimlari Yerdan 40 yorug`lik yili uzoqlikda suvdan tashkil topgan GJ 1214 b ekzosayyorasini topishdi. Nihoyat, 2014 yilda ochilgan Kepler-186F ekzosayyораси Erdan biroz kattaroq dastlabki

sayyora bo`lib qoldi. U o`z ona yulduzidan "yashash zonasasi" deb ataluvchi masofada joylashgan. Bu masofada sayyora sirtidagi suv suyuq holatda bo`ladi. Mazkur sayyora Erdan 490 yorug`lik yili masofada joylashgan. eng so`nggi hisob-kitoblarga ko`ra, Somon yo`li deb atalmish Galaktikamizdagi ekzosayyoralar soni 100 miliarddan oshar ekan. Ulardan 5-20 milliardi "ersimon" sayyoralar bo`lishi mumkin. Bu kashfiyotlardan ilhomlangan insoniyat endi o`zini Quyosh tizimidagi sayyoralarga, avvalo, Marsga parvoz etishda sinab ko`rmoqchi. Marsga bo`lajak dastlabki parvozlar borsa kelmas parvozlar bo`lsa-da, bu haqda e`lon bo`lishi bilanoq, sayyoraga parvoz qilishni xohlovchilar soni 10 ming kishidan oshib ketdi. Insoniyat Quyosh tizimining chekkasiga bora oladimi, yo`qmi, buni bilmaymiz. Lekin, bir inson yo`lga chiqib bo`ldi. 2006 yilda Klayd Tombo tavalludinig 100 yilligi sharafiga «Yangi gorizontlar» kosmik kemasi uchirildi. Kema bortida Plutonni kashf etgan Klayd Tomboning hoki solingan quticha bor. Tombo to`qsoninchi yillar oxirida, 93 yoshda vafot etdi. Hozir uning hoki kosmik kemada Plutonga qarab uchib ketmoqda. Haqiqatan, bu ma`lumot barchani hayajonga soladi. Nahotki, u o`shanda – 1930 yilda Plutonni kashf etganida, o`zi Plutonga uchib borishini tasavvur qilgan bo`lsa? Bu parvoz sayyorani kashf etgan inson xotirasiga bo`lgan chuqur hurmatdir. «Yangi gorizontlar» apparati 2015 yil 14 iyulda Plutonga etib bordi. O`n yillik parvozdan so`ng «Yangi gorizontlar» da Plutonni o`rganish boshlandi. Asbob-uskunalar Plutonga ultrabinafsha diapazonida qarashga, atmosferasining yuqori qatlamlaridan chang yig`ish va sayyorada magnitosfera bor-yo`qligini aniqlash uchun Quyosh shamolining zaryadlangan zarrachalari parametrlarini o`lchash imkonini beradi. Shundan so`ng, «Yangi gorizontlar» Plutonni tark etib, noma`lum yulduz sari yo`l oladi. Xuddi 85 yil avval Plutonning mavjudligini bilmaganimizdek, kemaning qaerga borishini ham bilmaymiz.

6. Yulduzlar osmoniga sayohat.



Yoz oylari osmoni ham go`zallikda bahornikidan qolishmaydi. Bu oylar sayyoralarining aksariyati Savr(Taurus) yulduz turkumida ipga tizilgan dur misol tiziladi. “Yozgi uchburchak” deyiluvchi uchburchakning yorug` yulduzlari boshimiz uzra porlab, tunda barcha yo`lovchilarga hamroh bo`ladi, yo`l ko`rsatadi va manzillarini yaqin qiladi. May oyi boshlarida qoq tunda osmonning kuzatuvchi tepasida Xo`kizboqar(Bootes) yulduz turkumi joylashdi. Undan sharq tomonda Shimoliy Toj, Gerkules, Lira va Oqqush kabi taniqli yulduz turkumlari joylashdi. Burgut yulduz turkumi esa, sharq tomondan asta ko`tarilaveradi. Bu yulduz turkumining eng yorug` At-Toyir yulduzi diametriga ko`ra, Quyoshdan ikki yarim barobar katta, ravshanligi jihatidan esa sakkiz martacha ortiqlik qiladi. Uning arabcha to`liq nomi “At-Toyir An-Nasr” bo`lib, “Uchuvchi burgut” degan ma`noni anglatadi. Liraga mansub eng ravshan Vega yulduzining arabcha nomi “An-Nasr al-Voqi” bo`lib, “Tushayotgan burgut” ma`nosini beradi. Keyinchalik “Al-Voqi” so`zi buzilib, Vega ko`rinishini olgan. Veganing rangi ko`kintir-oq, sirt harorati 15-17 ming darajaga etadi. Uning bizdan uzoqligi 27 yorug`lik yilini (bir yorug`lik yili salkam 10 trillion kilometr) tashkil etadi. Liraning Vega yaqinidagi ksi – ξ , beta – β , gamma – γ va del`ta – δ yulduzlari o`zaro tutashtirilsa, chiroqli parallelogramm ko`rinishini oladi. Liradan chaproqdan, Somon Yo`li sohasida Oqqush(Cygnus) yulduz turkumi joy olgan. Uning yorug` yulduzlarini fikran tutashtirganda unda qadim yunon va rimliklar affsonaviy oqqushni, arablar esa qanotini yozgan tovuqni ko`rganlar. SHuning uchun ham uning eng ravshan yulduzi Denebning nomi arabcha “Deneb ad-daja jeh” – “Tovuqning dumi” so`zidan olingan. Oqqushning gamma yulduzi Sadr (SHedar) – “Oqqushning ko`kragi” ma`nosini beradi. Deneb Quyoshdan 35 marta katta bo`lib (Quyosh diametri 1 million 400 ming kilometr), Denebning to`la nurlanish energiyasini salkam 6 000 ta Quyosh zo`rg`a hosil qilgan bo`lur edi. Denebgacha bo`lgan masofa 555 yorug`lik yilini tashkil etadi. Deneb yaqinida tashqi ko`rinishi SHimoliy Amerika qit`asini eslatuvchi va shu bois “SHimoliy Amerika” deb ataluvchi taniqli yirik diffuz-gaz tumanlik joylashgan. Mazkur yulduz turkumida



astronomlar diqqatini jalb etgan yana bir yulduz mavjudki, u 61 – nom bilan ataladi. Bu yulduz aslida qo`shaloq bo`lib, umumiylashtirilganda massa markazi (baritsentr) atrofida aylanuvchi ikki yulduzdan tarkib topgan, uning ravshan tashkil etuvchisi atrofida birinchi bo`lib pulkovolik rus astronomi A.Deych Quyosh atrofidagi sayyoralar kabi sayyorasi borligini o`tgan asrning 20-yillarida topgan. Bu uchala yulduz turkumining yorug` yulduzlari – At-Toyir, Vega va Deneb o`zaro tutashtirilganda hosil bo`ladigan va yulduzlar osmonida ko`zga yaqqol tashlanadigan uchburchak “yozgi uchburchak”, ba`zan “kuzgi uchburchak” nomi bilan tanilgan. Bu davrda osmonning g`arb tomonida ravshan Sumbula va Asad yulduz turkumlari ko`rinadi. Javzo va Aravakash yulduz turkumlari esa ufqida endi botayotgan bo`ladi. Sumbula yulduz turkumining eng ravshan yulduzi Spikaning nurlanish quvvati Quyoshnikidan 600 marta ko`p bo`lib, bizdan 190 yorug`lik yili masofada joylashgan. Asad yulduz turkumining eng ravshan yulduzi bo`lgan Regul lotincha “shoh” ma`nosini anglatadi. “Asad” arabcha “arslon”, “sher” degani bo`lib, hayvonlar shohi sifatida tanilganidan uning eng yorug` yulduzi shu nom bilan ataladi. Abu Rayhon Beruniy o`z asarlarida bu yulduzni “Malika” deb atagan. Aprel oyining 20-larida Savr yulduz turkumiga o`tgan Venera to iyunning o`rtalariga qadar Savr va Javzo yulduz turkumida harakatlanib, kechqurun g`arbda eng yorug` yulduz ko`rinishida jilolandi. Aprel oyining oxirlarida uning ko`rinish vaqtiga ikki soatgacha borgani holda, may oyidan orta bordi va bu oyning o`rtalariga kelib, Veneradan kuzatish uchun eng qulay davr boshlandi. Bu davrda uning ravshanligi eng yuqori darajaga erishib, ko`z bazo`r ilg`aydigan xira yulduzdan salkam 20 ming marta ravshan ko`rindi. May oyida sayyoralardan to`rttasi – Merkuriy, Venera, Mars, Saturn Savr yulduz turkumida proektsiyalanib, sayyoralarining zich guruhini tashkil etdi. 7 may kuni Venera Saturndan atigi 2 daraja shimalroqdan, 10 may kuni esa u Marsdan atigi 0,3 daraja shimaldan o`tdi. Bu davrda Saturn Veneradan 40 marta, Mars esa 170 martacha xira ko`rindi. May oyida o`rtalarida Venera g`arbida kechki ko`rinish vaqtiga 3 soatga etdi. SHundan so`ng, ko`p o`tmay, Venera Javzo yulduz turkumiga o`tdi. Ayni paytda bu yulduz



turkumida YUpiter ham harakatlandi. Bu sayyoralarning “qo`shilishi”, ya`ni birlaridan eng yaqin burchak masofadan o`tishi 3 iyun kuni sodir bo`ldi. Iyun oyida Quyoshning kech botishi hisobiga Veneraning kechki ko`rinish vaqt qisqara bordi va Saraton yulduz turkumida harakatlandi. Venera shu oy oxirlarida Asad yulduz turkumiga o`tdi va 10 iyulda Asadning eng yorug` yulduzi Regul yonidan o`tadi. May oyi sayyoralardan Marsni kuzatish uchun unchalik qulay emas. SHu oyning boshlarida u kechqurun Savr yulduz turkumida bir soatdan kamroq vaqt davomida g`arb tomonda ufqqa yaqin joyda juda xira bir yulduz sifatida ko`rindi. ko`rinmaydigan davri boshlandi.








Yuzingiz janubga qaragan holda to`g`ri yuqorida sharq tomonda uchta ravshan yulduz: Vega, Altair va Deneb. Ular yoshgi uchburchak deb ataluvchi geometrik shaklni hosil qiladi. Bu yulduzlarni topganingizdan so`ng eng ravshan yulduzlari shu uchta yulduzdan iborat uchta yulduz turkumini topishingiz mumkin:Lira([Lur](#)),Burgut([Aql](#)) va Oqqush([Cyg](#))(1-2 chizma). Bizdan o`ngda(g`arbda) biroz shimolroqda “Katta cho`mich” nomi bilan mashhur Katta ayiq yulduz turkumini topasiz(3-chizma). Cho`michning dastagi yoyi bilan janubga tomon eng ravshan yulduz tomon yursangiz “Ho`kizboqar”([Boo](#)) yulduz turkumiga chiqiladi. Uning eng ravshan yulduzi – ARKTUR harorati va spektriga ko`ra Quyoshga juda o`xshash bo`lib, ravshan qizil rangi bilan atrofdagi yulduzlardan ajralib turadi(3-chizma). Endi boshqa bir yoz oyining chiroyli yulduz turkumlaridan biri- AQRAB([Sco](#)) turkumi Deneb- Vega yo`nalishida janubroqda joylashgan. Uning eng ravshan yulduzi – Antares, qizil gigant. So`ngra biz ravshan yulduz turkumlaridan birini topishga muyassar bo`lgan ekanmiz, U yordamida nisbatan xiraroq yulduz turkumlarini topishga kirishamiz. Denebdav Vega orqali o`tkazilgan to`g`ri chiziq g`arbroqda joylashgan Gerkules([Her](#)) yulduz turkumi olib boradi(4-chizma). Endi ortga g`arbroqqa – yorug Arktur yulduziga qaytaylik. Biz “Arktur yoyi” bo`ylab yurarkanmiz Sunbula([Vir](#)) yulduz turkumining eng ravshan yuldusi- SPIKAga borishimiz mumkin(5-chizma).Ortga janub yo`nalishida Aqrabga tomon yurib Qavs([Sgr](#)) yulduz turkumining eng yorug` yulduzlaridan tashkil topgan “Choynak” tuzulmasini uchratishimiz mumkin(shu “choynakning” tumshug`i osti bilan Aqrab yulduz turkumining oraligi Samon yo`li gallaktikamizni markazi tomon yo`nalishni aniqlaydi)(6-chizma).*Endi yana ortga shimolga qaytamiz.*Ilgari biz Katta cho`mich tuzilmasi to`g`risida gapirgan edik. Aslida bu ulkan Katta Ayiq(Ursa Major) yulduz turkumining bir qismi. Agar siz bu yulduz turkumini ko`rsatgich barmoq qarshisidagi ikki yulduzi orqali ko`rinmas chiziq o`tkazsangiz u aynan kichik cho`mich tuzilmasining dastasida joylashgan qutb yulduziga tushasiz.










Aslida kichik cho`mich tuzilmasi Kichik ayiq(**Ursa Minor**) yulduz turkumi yulduzlarining bir qismi(7-chizma). Agar siz qutb yulduzi orqali kelayotgan chiziqnini davom ettirsangiz amalda Katta ayiq yulduz turkumi qarshisida joylashgan kuzgi osmonning asosiy yulduz turkumlaridan biri bo`lgan -Kursi(Cassiopeia) yulduz turkumiga kelasiz(8-chizma). Va nihoyat biz 88 ta yulduz turkumi ichida eng kichik, yozgi uchburchakdan janubda joylashgan Delfin (Delphinus, Equileus) yulduz turkumiga tushamiz(9- chizma).




7.Oy-Quyosh tutilish xaritalari


26 fevral 2017 yil halqasimon Quyosh tutilishi. 7 avgust 2017 yil Oyning qisman tutilishi



2017 yil 11 fevral kuni yuz beradigan yarim soyali Oy tutilishi.




2017 yil 21 avgust Quyoshning to'la tutilishi



8.KOMETALAR.


Kometalar («*dumli yulduzlar*»). «Komet» - yunoncha «sochli» degan ma`noni anglatadi. Kometalarga «sochli» yoki «dumli yulduzlar» degan nom ularning Quyosh yaqinida o`tayotgandagi ko`rinishlariga ko`ra berilgan, aslida esa



orbita bo`ylab harakatlari davomida ularning ko`rinishlari keskin o`zgarib boradi. Xususan, kometa Quyoshdan juda uzoq masofada bo`lganda (u paytda kometa sayyoramizdan ham uzoq masofada turadi) uning asosiy massasi mujassamlashgan *yadro* deb ataluvchi qismi xira yulduzcha shaklida ko`zga tashlanadi. U Quyoshga yaqinlashgan sayin yadro atrofini *koma* deyiluvchi siyrak gaz buluti o`raydi. Shuningdek, bu davrda komadan Quyoshga qarama-qarshi tomonga qarab *ravshan* «*dum*» cho`ziladi.

2017 yilda. Kometalar ichida kichik teleskoplar bilan mamlakatimiz hududidan kuzatish imkonini bo`ladiganlari: P/Encke (2P), Johnson (C/2015 V2), P/Tuttle-Giacobini-Kresak (41P) vba boshqalar bo`lib, ularning ravshanligi 10m ga teng. Kometalarning efemeridlarini <http://astronet.ru/> saxifalaridan toppish mumkin. P/Encke (2P) kometasini yanvar-fevral oylarida kech ko`rish mumkin bo`ladi. Jadvallarda 2017 yilda perigeliya(perigeliyda oлислиги 2 a.b. dan kamroq masofagacha bo`ladi) keladigan kometalar keltirilgan. Tezkor ma`lumotlar-

<http://aerith.net> saxifasioda. Quyidagi xaritalarda 2017 yil kuzatish imkonini bo`lgan
ba`zi kometalarning harakat yo`llari tasvirlangan.




9. ASTEROIDLAR


1596-yili bosilgan «Kosmografiya sirlari» asaridayoq Iogann Kepler Ma bilan Yupiterning orasida ham bir sayyora bo`lishi kerak deb gumon qilgan edi. Ilmiy mulohaza asosida tug`ilgan Keplerning bu gipotezasi, ikki asrdan so`nggina sayyoralarining Quyoshdan o`rtacha uzoqliklari orasidagi bog`lanishni ifodalovchi ajoyib empirik munosabatning ochilishi bilan tasdiqlandi. Dastlab mayda sayyoralar qadimgi rim afsonalarining qahramonlari, xudolari nomlari bilan yuritildi. So`ngra ularning soni juda ko`payib ketgach, 45 boshlab, oddiy ayollarining nomi bilan, keyinroq esa asteroidlarga Filosofiya, Geometriya, YustitHya kabi fanlar hamda geografik nomlar ham beriladigan bo`ldi. Mayda sayyoralariga tegishli yana bir qiziq joyi shundaki, ulardan ko`pi topilgach, orbitalarini hisoblashga ulgurmay turib yo`qotib qo`yiladi. Shu xilda «yo`qolgan» mitti sayyoralarining soni mingdan ortiq. XX asrning birinchi besh yilligi (1901-1905 y.) oralig`ida topilgan 300 mayda sayyoradan 179 tasi «yo`qotib» qo`yildi, 1936—1940-yillar davomida topilgan 1176 astroiddan esa ro`yxatga atigi 136 tasi inustahkam qayd qilindi. Buning oldini olish uchun 1873-yildayoq Berlin hisoblash instituti tashkil etildi va u to 1945-yilga qadar mitti sayyoralarini tadqiq qilish markazi bo`lib keldi. Urushdan keyin bu vazifani 1920-yilda tashkil etilgan sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Leningrad nazariy astronomiya instituti o`z zimmasiga oldi. Bu institutning osmon jismlari orbitalarini hisoblashga tegishli jadvallari butun dunyo astronomik observatoriyalari tomonidan foydalilaniladi. Orbitalari hisoblanib, mayda sayyoralar ro`yxatidan mustahkam joy olgan asteroidlarning soni hozirga kelib bir necha mingdan ortib ketdi. 2006-yilda chaqirilgan Xalqaro astronomik ittifoq Assambleyasining qaroriga ko`ra, ulardan eng yirigi-Tserera mayda sayyoralar safidan chiqarilib, mitti sayyoralar qatoriga kiritildi.

VESTA asteroidi 2017 yilda eng ravshan ko`rinishga ega bo`lib, 18 yanvar ro`baro` turish paytida uning ravshanligi 6,2m ga yetadi(Qisqichbaqa turkumida). Yil so`ngida TSERERAning ravshanligi 7,4m ga yetadi(arslon turkumida). IRIDA asteroidi 30 oktyabrda Quyosh bilan ro`baro` turishga kirishib,


uning ravshanligi 6,9m ga teng bo`ladi(Hamal turkumida). Boshqa asteroidlarning eng ravshanlari Metida, Irena, Geba va Evmaniya(ravshanligi 9m ga yaqin). Asteroid va kometalar batafsil xaritalari <http://www.astronet.ru/db/news/> saxifasida chop qilinadigan har oygi taqvimlarda keltiriladi. Quyida ba`zi bir asteroidlarning 2017 yildagi harakat yo`llari keltirilgan.



Irena va Irida asteroidlarini 2017 yildagi yo'li



IEKIDA asteroidining 2017 yil iyul-dekabr oylaridagi yo'li





Adabiyotlar.

1. Mamatazimov M. "Astronomiya" Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T. "O'qituvchi" 2003 y.
2. Mursallimova T., Raximova A. "Umumiy astronomiya kursi" T.1976.
3. Mamatazimov M. "Umumiy astronomiya" " Yangi asr avlod" 2008 yil
4. Quryanov. V.E. "Astronomiya yangi texnika" "Fan nashriyoti" 1979 yil.
5. "Zamonaviy fizika va astronomiyaning dolzarb muammolari " II Respublika ilmiy konferensiya materiallari.234 b. Qarshi 2010-yil
6. XX International confern. Spektroscopy of molecules and crystals. Bevegove,Crimea, Ukraine-2011. P367.
7. Astronomi obnarujili rekordno malie ekzoplaneti Rossiyskie astronomi v pervie otkrili lunu vozle ekzoplaneti, RIA Novosti (6 fevralya 2012).
8. NASA rasmiy sayti – www.nasa.gov materiallari.
9. Internet ma'lumotlari:
www.umbra.nascom.nasa.gov/eit/eitcatalog.html
www.nasa.com.
www.astrin.uzsci. net.
www.ziyonet.uz
www.bankreferatov.ru.kasu.uz
www.Orbita.uz sayti materiallari.
www.Astronet.ru sayti materiallari.



MUNDARIJA

KIRISH	4
TAQVIMLAR.....	6
1.SHIMOLIY YARIM SHAR YULDUZ TURKUMLARI NOMLARI.....	11
2.Qadimdan qo`llaniladigan oy va yil hisoblari.	15
2.1.(BURJ)ZODIAK yulduz turkumlari.	15
2.2.Muchal yil hisobi.....	17
3.QUYOSH.....	21
3.1. <i>Quyosh haqida umumiy ma`lumotlar.</i>	21
3.2. <i>Astronomik va grajdancha g`ira-shiralik.</i>	23
3.3. Quyosh efemeridlari.....	38
3.4.Quyosh va Oy tutilishlari.....	41
4.Oy-Yerning yagona tabiiy yo`ldoshi.....	47
4.1. OY efemeridlari.....	50
4.2.2017 yil-OY TAQVIMI	55
4.3.Yer uchun sayyoralarining Oy bilan birlashishi. 2017 yil	60
5.Quyosh tizimi.	64
Quyosh tizimining katta sayyoraları.	64
5.1.Yer – sayyorasi.....	69
5.2.Sayyoralarining 2017 yildagi ko`rinishi.....	71
5.3.2017 SAYYORALARLING KO`RIN ISHI BUXORO O`ZBEKISTON .	72
5.4. Sayyoralar harakatida asosiy hodisalar.	74
5.5.Merkuriy	76
5.6.Venera.....	80



5.7.Mars	88
5.8.Yupiter	88
5.9.Saturn	93
5.10.Uran	100
5.11.Neptun.....	106
5.12. Sirli- Pluton.	112
6. Yulduzlar osmoniga sayohat.....	119
7.Oy-Quyosh tutilish xaritalari	129
8.KOMETALAR.....	130
9.ASTEROIDLAR	132
Adabiyotlar.	136



